MATEMATIKA

2016

MATEMATIKA

2016.1.

1. $a=-4$ bo'lsa,

$$\int_{a}^{a+1}(\ln(\sin^2 2x+\cos^2 2x)+1)dx$$

aniq integralni hisoblang.

A) $\frac{ln2-1}{2}$ B) $2\sqrt{2}$ C) 1 D) $\sqrt{2}$

2. $3^{3x}-3^x=720$ tenglamani yeching.

A) 2 B) 4 C) 5 D) 3

3. 1,2,3,4,5,6 raqamlardan faqat bir martadan foydalanib ikkita uch xonali sonlar hosil qilish mumkin, masalan, 645 va 321 . Bu raqamlardan ikkita uch xonali sonlar tuzilganda, ular musbat ayirmasining eng kichik qiymati nechaga teeng bo'ladi?

A) 48 B) 47 C) 56 D) 69

4. Akvariumning bo'yi 80 sm, eni 60 sm, balandligi 40 sm. Suv sathi yuqoridan 10 sm pastda bo'lishi uchun akvariumga necha litr suv quyish kerak?

A) 288 B) 144 C) 140 D) 72

5. To'g'ri burchakli ABC uchburchak CD balandlik bilan BCD va ACD uchburchaklarga bo'lingan. Shu uchburchaklar yarim perimetrlari mos ravishda 20 va 21 ga teng. ABC uchburchakning yarim perimetrini toping.

A) $24\sqrt{2}$ B) 26 C) 42 D) 29

6. $y=f(x)$ funksiyada D to'plamda noqat'iy kamayuvchi bo'lsin. D to'plamdan olingan ixtiyoriy a,b elementlar uchun $(a>b)$ quyidagi munosabatlarning qaysi biri o'rinli?

A) $f(a)\le f(b)$ B) $f(b)\le f(a)$ C) $f(a)<f(b)$

D) $f(a)=f(b)$

7. Quyidagi ko'pyoqlarning qaysi birida 4 ta yoq bor?



A) 1, 3 B) 3 C) 1 D) 2

8. Hisoblang : $\sin\frac{\pi}{18}\sin\frac{5\pi}{18}\sin\frac{7\pi}{18}$

A) $\frac{1}{8}$ B) $\frac{\sqrt{2}}{4}$ C) $\frac{\sqrt{2}}{2}$ D) $\frac{\sqrt{3}}{8}$

9. $y>0$ bo'lsin. To'rtburchakning uchlari to'g'ri burchakli dekart koordinatalar sistemasida quydagicha $A(0;0),B(0;y),C(10;y),D(12;0)$ berilgan. To'rtburchak diagonallarining o'rtalari orasidagi masofani toping.

A) 1 B) $\sqrt{2}$ C) 2 D) *y ga bog'liq*

10. Rasmda $y=a+\frac{b}{x+c}$ funksiya grafigi tasvirlangan. Quydagilardan qaysi biri doim o'rinli?



A) $a^3-b^3>0$ B) $C^2-b^2>0$ C) $a^2-b^2c>0$

D) $abc>0$

11. $\frac{2-x^2-x}{x^2+x}\ge 0$ tengsizlikni yeching.

A) $[-2;-1]\cup(0;1)$ B) $[-2;-1)\cup(0;1)$

C) $(-5;-2]\cup[1;3)$ C) $[-5;-2)\cup(1;3]$

12. $\begin{cases}x^2+y^2+xy=3\\ x^4+y^4=2\end{cases}$ tenglamalar sistemasining manfiy sonlardan iborat $(x;y)$ yechimlar juftligi sonini toping.

A) 1 B) 2 C) 0 D) 3

13. $y=\log_5(\sin^2 x+\cos^2 x)$ funksiyaning $x=\frac{1}{2}$ nuqtadagi hosilasini toping.

A) $-\log_5 2$ B) $\log_5 2$ C) 1 D) 0

14. O'zaro teng bo'lmagan x va y sonlari $x^2+26y=y^2+26x$ tenglikni qanoatlantirsa, $x+y$ ni toping.

A) 26 B) 0 C) 16 D) 24

15. $\sqrt[3]{x-2}-\sqrt[3]{x-4}=-\sqrt[3]{3x-8}$ tenglama nechta butun yechimga ega?

A) 0 B) 2 C) 1 D) 3

16. Hisoblang:

$$\log_{2\sqrt{2}}\left(\left(1+\frac{1}{2}\right)\left(1+\frac{1}{3}\right)\left(1+\frac{1}{4}\right)\ldots\left(1+\frac{1}{15}\right)\right)$$

A) -3 B) 3 C) 2 D) $\frac{1}{2}$

17. ABCD to'rtburchakning har bir tomoni chizmada ko'rsatilgandek o'z uzunligiga teng uzoqlikda davom ettirilgan. Agar $A'B'C'D'$ to'rtburchak yuzasi 5 ga teng bo'lsa, ABCD to'rtburchak yuzasini toping.



A) 4 B) 2,5 C) 3 D) 1

18. Hisoblang: $1{,}5+\text{tg}^2\left(\arccos\frac{1}{3}\right)$

A) 8,5 B) 9,5 C) 7 D) -7,5

19. To'g'ri burchakli uchburchak tomonlariga yasalgan kvadratlar yuzalarining yig'indisi 48 ga teng. Gepotenuza uzunligini toping.

A) 10 B) $2\sqrt{6}$ C) $2\sqrt{3}$ D) 12

20. Nechta butun son

$$\log_{0,5}(4^x-5*2^x+6)\geq -1$$

tengsizlikning yechimi bo'ladi.

A) 1 B) 2 C) *cheksiz ko'p* D) 3

21. Ushbu $f(x)=\frac{2x+1}{x^2+x-2}$ funksiyaning boshlang'ich funksiyasini toping.

A) $\ln(|x-1|\cdot|x+2|)+C$ B) $\frac{2x^2}{(x-1)(x+2)}+C$

C) $\ln|x+2|+C$ D) $\ln(x-1)+C$

22. Velosipedchi tepalikka 12 *km/soat* tezlik bilan chiqdi. Chiqqan yo'li orqali 20 *km/soat* tezlik bilan pastga tushdi va chiqishdagiga qaraganda 16 *min* kamroq vaqt sarfladi. Yo'lning uzunligini (*km*) toping.

A) 12 B)10 C) 8 D) 14

23. Uchburchakning uchlari to'g'ri burchakli dekart koordinatalar sistemasida quydagicha berilgan: $A(0;0)$, $B\left(\frac{1}{2};2\right)$, $C(1;0)$. Uchburchak yuzini toping.

A) $\sqrt{3}$ B) 1 C) 2 D) $\sqrt{2}$

24. Agar barcha x va y lar uchun

$$x^3+4x^2y+axy^2+3xy-bx^cy+7xy^2+dxy+y^2=x^3+y^2$$

ayniyat bajarilsa, $|a+b+c|(a+b+c+d)$ ni toping $c>1$.

A) 2 B) -1 C) -4 D) -3

25. Rasmda $y=f'(x)$ funksiya grafigi tasvirlangan. $y=f(x)$ funksiyaning $3>x\geq 0$ oraliqdagi o'sish oralig'ini toping.



A)$(0;2)\cup(3;\infty)$ B) $\left(0;\frac{1}{2}\right)\cup(2;\infty)$

C) $(1;3)$ D) $(0;1)$

26. $y=-x^2+6x-1$ funksiyaning simmetriya o'qi koordinatasi va $(5;8)$ nuqta orasidagi masofani toping.

A) 3 B) 8 C) 2 D) 7

27. R radiusli sferaga muntazam to'rtburchakli piramida ichki chizilgan. Uchidagi yassi burchagi 30° ga teng bo'lsa, piramida yon sirtining yuzini toping.

A) $2R^2$ B) $3R^2\sqrt{3}$ C) $R^2\sqrt{3}$ D) $2R^2\sqrt{3}$

28. $\{x : x \in \mathbb{N}, 6 \le x^2 \le 42\}$ to'plamning nechta qism to'plamlari mavjud.

A) 8 B) 32 C) 16 D) 5

29. a va b natural sonlarning eng katta umumiy bo'luvchisi 3 ga teng bo'lsa, $a+3b$ va b sonlarning eng katta umumiy bo'luvchisi nimaga teng?

A) 4 B) *bir qiymatli aniqlab bo'lmaydi* C) 1 D) 3

30. Arifmetik progressiya $n-$hadi $a_n = -\frac{n+1}{5}$ ga teng. Progressiyaning ayirmasini toping.

A) -2 B) $-0{,}2$ C) -1 D) $-0{,}5$

MATEMATIKA

2016.2.

1. $x^{\lg 5} \cdot 5^{-\lg x} = 1$ tenglamani yeching.

A) $(0;+\infty)$ B) $\{-1\} \cup (1;+\infty)$ C) $(-1;1)$ D) $(0;1)$

2. $9^{\sin^2 x} - 9^{\cos^2 x} = 8$ tenglamaning $[0;2\pi]$ kesmadagi ildizlari yig'indisini toping.

A) 270° B) 540° C) 360° D) 630°

3. $y = -6\sin^2 x + \frac{3}{4}\cos^2 2x + 2\frac{1}{4}$ funksiyaning eng kichik butun qiymatining eng katta manfiy butun qiymatiga nisbatini toping.

A) $\frac{1}{3}$ B) 3 C) -1 D) -3

4. C nuqta – AB kesmaning o'rtasi. AC va BC kesmalarda mos ravishda M, N nuqtalar shunday olinganki, $AM{:}MC{=}CN{:}NB$ munosabat bajariladi. Agar AB kesma uzunligi 36 ga teng bo'lsa, MN kesma uzunligini toping.

A) 12 B) 9 C) 24 D) 18

5. Rasmda $y = f'(x)$ funksiya grafigi tasvirlangan. $y = f(x)$ funksiya grafigi $x_1 = 2$ va $x_2 = 3$ abssisali nuqtalarda o'tkazilgan urinmalar orasidagi o'tkir burchakni aniqlang.



A) $\frac{\pi}{3}$ B) $\frac{\pi}{4}$ C) 0 D) $\frac{\pi}{6}$

6. Quydagi ko'pyoqlardan qaysi birida 5 ta yoq, 9 ta qirra bor?



A) 1 B) 1, 2 C) 2 D) 3

7. $5 \cdot 0{,}2^{\lg x} > 0{,}04^{\lg 2}$ tengsizlikni yeching.

A) $(10;50)$ B) $(10;50]$ C) $(0;40)$ D) $[1;40]$

8. Velosipedchi tepalikka 12 *km/soat* tezlik bilan chiqdi. Chiqqan yo'li orqali 20 *km/soat* tezlik bilan pastga tushdi va chiqishdagiga qaraganda 16 *min* kamroq vaqt sarfladi. Yo'lning uzunligini (*km*) toping.

A) 14 B) 8 C) 12 D) 10

9. Aylanaga tashqi chizilgan $ABCD$ to'rtburchakda AB va CD tomonlar uzunliklari mos ravishda 2 va 3 ga teng bo'lsa $AD{+}BC$ ni toping.

A) 5 B) 3 C) 6 D) 2

10. Beshta a_1, a_2, a_3, a_4, a_5 tub sonlar ayirmasi 6 ga teng bo'lgan arfmetik progressiyani tashkil qiladi. a_3 ni toping.

A) 19 B) 17 C) 23 D) 11

11. $y = \ln\left(\text{arctg}3x + \text{arcctg}3x - \frac{\pi}{2} + 1\right)$ funksiyaning $x = \frac{1}{2}$ nuqtadagi qiymatini hisoblang.

A) $-\ln 2$ B) 1 C) 0 D) $\ln 2$

12. $y = 4 - x^2$; $y = 0$ chiziqlar bilan chegaralangan shaklning yuzini toping.

A) $8\frac{2}{3}$ B) 8 C) $10\frac{2}{3}$ D) 12

13. Poyezd 5 *minut*da 9 *km* masofani, motosikl 6 *minut*da 9 *km* masofani bosib o'tdi. Motosiklchining tezligi poyezd tezligining necha foizini tashkil etadi.

A)80% B) $81\frac{2}{3}\%$ C) $83\frac{1}{3}\%$ D) $63\frac{1}{3}\%$

14. Agar $\text{ctg}^2\alpha = 1{,}5$ va $\alpha\epsilon\left(0;\frac{\pi}{2}\right)$ bo'lsa, $\cos^2\alpha - \sin^2\alpha$ ni hisoblang.

A) $\frac{1}{5}$ B) $\frac{1}{4}$ C) $\frac{1}{2}$ D) $-\frac{1}{5}$

15. Qirralari 11, 13 va 17 bo'lgan parallelopiped qirrasi 1 ga teng bo'lgan kubchalardan tshkil topgan. Parallelopipeddan 1 kubcha qalinligidagi tashqi sirt olib tashlash uchun nechta kubcha olinishi kerak.

A) 944 B) 511 C) 946 D) 513

16. To'g'ri burchakli ABC uchburchak CD balandlik bilan BCD va ACD uchburchaklarga bo'lingan. Shu uchburchaklarga ichki chizilgan aylanalar radiuslari mos ravishda 5 va 12 ga teng. ABC uchburchakka ichki chizilgan aylana radiusini toping.

A) $8\sqrt{2}$ B) 13 C) 14 D) 17

17. $|x^2 - 2x| \le x$ tengsizlikni qanoatlantruvchi tub sonlar yig'indisini toping.

A) 5 B) 10 C) 2 D) 3

18. $2\sqrt{2}$ radiusli sferaga muntazam to'rtburchakli piramida ichki chizilgan. Uchidagi yassi burchagi 45° ga teng bo'lsa, piramida yon sirtining yuzini toping.

A) 28 B) 32 C)$16\sqrt{2}$ D) 36

19. $\{x: x \in \mathbb{N}, x^2 < 33\}$ to'plamni nechta usul bilan ikkita kesishmaydigan qism to'plamlarga ajratish mumkin?

A) 16 B) 33 C) 5 D) 32

20. Agar $m = 64$ bo'lsa,

$$\log_7\left(\frac{\sqrt{m}+27}{\sqrt[3]{m}-2\sqrt[6]{m}-15} : \frac{\sqrt[3]{m}-3\sqrt[6]{m}+9}{\sqrt[3]{m}-25}\right)$$

ni hisoblang.

A) $\log_7 2$ B) -1 C) 0 D) 1

21. $y = \text{arctg}x$ funksiya grafigi berilgan bo'lib, uni parallel ko'chirish yordamida $y = \text{arctg}(x + a) + b$ funksiyaning grafigi hosil qilingan. Bunday parallel kochirishda koordinata boshi qanday nuqtaga ko'chadi?

A) $N(-a; b)$ B) $N(a; b)$ C) $N(b; a)$ D) $N(a; -b)$

22. O'zaro teng bo'lmagan x va y sonlari $x^2 + 26y = y^2 + 26x$ tenglikni qanoatlantirsa, $x + y$ ni toping.

A) 0 B) 26 C) 16 D) 24

23. $[4; 100]$ kesmada $2, 3, 5$ va 7 sonlariga bo'linganida qoldiq 1 ga teng bo'ladigan natural sonlar nechta?

A) 3 B) 0 C) 1 D) 2

24. $y > 0$ bo'lsin. To'rtburchakning uchlari to'g'ri burchakli dekart koordinatalar sistemasida quydagicha berilgan: $A(0; 0), B(0; y), C(10; y), D(12; 0)$. To'rtburchak diagonallarining o'rtalari orasidagi masofani toping.

A) 2 B) $\sqrt{2}$ C) 1 D) *y ga bog'liq*

25. $(x; y)$ sonlar jufti $\begin{cases}\frac{4x-3y}{6}+\frac{5y-2x}{3}=0\\ \frac{6x+7y}{2}-\frac{4x-3y}{4}=2\end{cases}$ sistemaning yechimi bo'lsa, $x^2 - y^2$ ni toping.

A) -1 B) 0 C) 2 D) 1

26. $y = \ln(\text{arctg}2x + \text{arcctg}2x)$ funksiyaning $x = \frac{1}{2}$ nuqtadagi hosilasining qiymatini toping.

A) 0 B) ln2 C) 1 D) – ln2

27. $\alpha = 7{,}5°$, $a = (\text{tg}\alpha)^{\text{tg}\alpha}$, $b = (\text{tg}\alpha)^{\text{ctg}\alpha}$, $c = (\text{ctg}\alpha)^{\text{tg}\alpha}$ bo'lsa, quyidagilardan qaysi biri o'rinli?

A) $b > a > c$ *B)* $b > c > a$ *C)* $b > a > c$

D) $c > a > b$

28. Ushbu $f(x) = \frac{x-6}{x-5}$ funksiyaning boshlang'ich funksiyasini toping.

A) $\ln(x-5)^2+C$ B) $\frac{2x^2}{(x-5)^2}+C$

C) $x-\ln|x-5|+C$ D) $x+\ln|x-5|+C$

29. Ifodani soddalashtring:

$$\frac{1-\text{tg}^2\frac{\alpha}{2}}{1+\text{tg}^2\frac{\alpha}{2}}-\frac{1+\sin 2\alpha}{\sin\alpha+\cos\alpha},\ \alpha\in\left(0;\frac{\pi}{2}\right)$$

A) $\sin\alpha$ B) $2\text{tg}\alpha$ C) $\sin\alpha+1$ D) $-\sin\alpha$

30. Uchburchakning uchlari to'g'ri burchakli dekart koordinatalar sistemasida quyidagicha berilga $A(0;0), B(-1;-2), C(-2;0)$.
Uchburchak yuzini toping.

A) 3 B) $2\sqrt{2}$ C) 2 D) $2\sqrt{3}$

MATEMATIKA

2016.3.

1. Poyezd 3 minutda 8 kilometr masofani, motosikl 4 minutda 8 kilometr masofani bosib o'tdi. Motosiklning tezligi poyezd tezligining necha foizini tashkil etadi?

A) 77% B) 75% C) 67% D) 73%

2. Hisoblang:

$$\frac{\cos^2 31^\circ}{4\sin^2 31^\circ+3\cos 62^\circ-1}$$

A) 0,5 B) -2 C) 2 D) 1

3. Qavariq ko'pburchakning bittasidan tashqari qolgan barcha burchaklari yig'indisi 2198° ga teng. Ko'pburchakning tomonlari sonini toping.

A) 16 B) *aniqlab bo'lmaydi* C) 14 D) 15

4. $a=-b, c=3$ bo'lsa,

$$\frac{c(a-b)^3+a(b-c)^3+b(c-a)^3}{c^2(b-a)+b^2(a-c)+a^2(c-b)}$$

ifodaning qiymatini toping.

A) 0 B) 3 C) -3 D) 1

5. Hisoblang: $\cos\left(\text{arctg}\frac{1}{3}+\text{arctg}\frac{1}{2}\right)$

A) $-\frac{\sqrt{3}}{3}$ B) $\frac{\sqrt{3}}{3}$ C) $\frac{\sqrt{2}}{2}$ D) $-\frac{\sqrt{2}}{2}$

6. $\log_{\frac{1}{9}}\log_{\frac{1}{4}}\frac{x+4}{2x-1}<0$ tengsizlikni qanoatlantiradigan eng kichik butun sonni toping.

A) -8 B) -10 C) 0 D) -5

7. $a=(0{,}2)^{\frac{1}{2}\log_5 16-\log_{25}2^8}$ bo'lsa, $\log_2 a$ ni toping.

A) 0,5 B) $\log_2 5$ C) 2 D) 1

8. Agar $f(x)=g(h(x))$ va $h(x)=2x^2-3x$ funksiyalar berilgan va $f'(-1)=14$ bo'lsa, $g'(5)$ ni hisoblang.

A) -2 B) 14 C) -7 D) -35

9. $x^4-29x^2+100=0$ tenglamani yeching.

A) $\emptyset$ B) $\pm2;\ \pm5$ C) $\pm4;\ \pm10$ D) $\pm2;\ \pm10$

10. Agar barcha x va y lar uchun

$$x^3+4x^2y+axy^2+3xy-bx^cy+7xy^2+dxy+y^2=x^3+y^2$$

ayniyat bajarilsa, a ni toping.

A) -7 B) 4 C) -3 D) 2

11. Ushbu $f(x)=\frac{x+3}{x+4}$ funksiyaning boshlang'ich funksiyasini toping.

A) $x-\ln|x+4|+C$ B) $\frac{2x^2}{(x+4)^2}+C$

C) $\ln(x+4)^2+C$ D) $x+4\ln|x+4|+C$

12. $\{x|x\in\mathbb{N}, 5\le x^2\le 39\}$ to'plamning nechta xosmas qism – to'plami mavjud?

A) 2 B) 5 C) 16 D) 32

13. $a_1, a_2, \dots, a_8$ ketma – ketlikda ixtiyoriy uchta ketma – ket hadining yig'indisi 50 ga teng. Agar ketma – ketlikning uchinchi hadi 8 ga teng bo'lsa, birinchi va sakkizinchi hadlarning yig'indisini toping.

A) 44 B) 42 C) 16 D) 8

14. AB kesma K aylananing diametri bo'lsin. L aylana K aylanaga hamda AB to'g'ri chiziqqa K aylananing markazida urinadi; M aylana K va L aylanaga hamda AB to'g'ri chiziqqa urinadi (chizmaga qarang). Agar

M aylana radiusi $\frac{1}{2}$ ga teng bo'lsa, L aylana radiusini toping.



A) *aniqlab bo'lmaydi* B) 1 C) 2 D) 3

15. Nechta tub son $|x^2-2x| \le x$ tengsizlikning yechimi bo'ladi?

A) 1 B) 2 C) 3 D) 0

16. $|x-3|^{3x^2-10x+3}=1$ tenglamaning butun yechimlarini toping.

A) 2 *va* 4 B) 2 *va* -4 C) -2 *va* 4

D) -2 *va* -4

17. $4x^2-\sqrt{x^2}-3=0$ tenglama ildizlari ko'paytmasini toping.

A) 1 B) 2 C) -4 D) -1

18. $y>0$ bo'lsin. To'rtburchakning uchlari to'g'ri burchakli dekart koordinatalar sistemasida quydagicha berilgan: $A(1;0), B(1;y), C(4;y)$ va $D(6;0)$. To'rtburchak diagonallarining o'rtalari orasidagi masofani toping.

A) 2 B) $\sqrt{2}$ C) *y ga bog'liq* D) 1

19. Qirrasi $5\sqrt{3}$ ga teng bo'lgan kubning qo'shni yoqlarining ayqash diagonallari orasidagi masofani toping.

A) $4\sqrt{2}$ B) $3\sqrt{3}$ C) 6 D) 5

20. $y=f(x)$ funksiya minimum nuqtasi x_0 bo'lsin. U holda qaysi tengsizlik x_0 ning qandaydir atrofida barcha x lar uchun o'rinli?

A) $f(x) \ge f(x_0)$ B) $f(x) \le f(x_0)$
C) $f(x) > f(x_0)$ D) $f(x) < f(x_0)$

21. $[50;300]$ kesmada 3 ga bo'lganda qoldiq 1 ga, 4 ga bo'lganda qoldiq 2 ga, 5 ga bo'lganda qoldiq 3 ga va 6 ga bo'lganda qoldiq 4 ga teng bo'ladigan natural sonlar nechta?

A) 2 B) 3 C) 4 D) 5

22. Uchburchaklning uchlari to'g'ri burchakli dekart koordinatalar sistemasida quyidagicha berilgan: $A(0;0), B\left(-\frac{1}{2};10\right), C(-1;0)$. Uchburchak yuzini toping.

A) 5 B) $3\sqrt{3}$ C) 4 D) $4\sqrt{2}$

23. $y=\frac{1}{x^2}$; $y=0$; $x=1$; $x=2$ chiziqlar bilan chegaralangan shaklning yuzini toping.

A) 2,5 B) 0,5 C) 2 D) 4

24. $60°$ ga teng bo'lgan A burchakka aylana ichki chizilgan. Bu aylana burchak tomonlariga B va C nuqtalarda urinadi. Agar $BC=5$ bo'lsa, AC ni toping.

A) *bir qiymatli aniqlab bo'lmay*di B) 3 C) 5 D) 4

25. Parallepipedning asoslari tomoni $3\sqrt{2}$ ga teng kvadratlardan, barcha yon yoqlari romblardan iborat. Yuqori asosining uchlaridan biri ostki asosining uchlaridan baravar uzoqlikda joylashgan. Parallepipedning hajmini toping.

A) 54 B) $9\sqrt{2}$ C) $27\sqrt{2}$ D) 27

26. $y=|x-2|+|x-3|+|x-4|$ funksiyaning eng kichik qiymatini toping.

A) 1 B) 3 C) 0 D) 2

27. Musbat x va y sonlar uchun $a=\frac{x+4y}{2}$ va $b=2\sqrt{xy}$ bo'lsin. Qaysi tengsizlik har doim o'rinli?

A) $a \le b$ B) $a < b$ C) $a > b$ D) $a \ge b$

28. Agar $f(x)=7^x \cdot 3x$ bo'lsa, $f'(x)>0$ tengsizlikni yeching.

A) $(-\log_7 e; e)$ B) $(-\log_7 e; +\infty)$

C) $(-2\log_7 e; +\infty)$ D) $(-\infty; -\log_7 e)$

29. Rasmda $y=a+\frac{2}{bx+c}$ funksiyaning grafigi tasvirlangan. Quyidagilardan qaysi biri noto'g'ri?



A) $bc + a > 0$ B) $ab > 0$ C) $ac - b > 0$ D) $a + ab > 0$

30. Asosi a ga, yon tomoni b ga teng bo'lgan teng yonli uchburchakning yon tomoniga tushirilgan balandlik uzunligini toping.

A) $h_b = \frac{a}{2b}\sqrt{4b^2 - a^2}$ B) $h_b = \frac{b}{2a}\sqrt{4b^2 - a^2}$

C) $h_b = \frac{b}{a}\sqrt{4b^2 - 2a^2}$ D) $h_b = \frac{a}{b}\sqrt{4b^2 - 2a^2}$

MATEMATIKA

2016.4.

1. Asosi a ga, yon tomoni b ga teng bo'lgan teng yonli uchburchakning yon tomoniga tushirilgan balandlik uzunligini toping.

A) $h_b = \frac{a}{2b}\sqrt{4b^2 - a^2}$ B) $h_b = \frac{b}{2a}\sqrt{4b^2 - a^2}$

C) $h_b = \frac{b}{a}\sqrt{4b^2 - 2a^2}$ D) $h_b = \frac{a}{b}\sqrt{4b^2 - 2a^2}$

2. $|x + 5|^{x^2-1} \geq 1$ tengsizlikni qanoatlantirmaydigan eng katta butun sonni toping.

A) 0 B) -1 C) -2 D) 3

3. Beshta a_1, a_2, a_3, a_4, a_5 tub sonlar ayirmasi 6 ga teng bo'lgan arifmetik progressiya tashkil qiladi. $2a_1 + a_2$ ni toping.

A) 21 B) 37 C) 34 D) 27

4. $y = -x^2 + 6x - 1$ funksiyaning simmetriya o'qi koordinatasi va $(5; 8)$ nuqta orasidagi masofani toping.

A) 2 B) 8 C) 3 D) 7

5. O'zaro teng bo'lmagan a va b sonlari $a^2 + 36b = b^2 + 36a$ tenglikni qanoatlantirsa, $\sqrt[4]{a^2 + 2ab + b^2}$ ni toping.

A) $\sqrt{18}$ B) 0 C) $\sqrt{24}$ D) 6

6. Sharga asosining tomoni $5\sqrt{2}$ ga, balandligi 10 ga teng bo'lgan muntazam to'rtburchakli piramida ichki chizilgan. Shar radiusini toping.

A) 6,25 B) 24 C) 6 D) 6,5

7. $[50; 250]$ kesmada 3 ga bo'lganda qoldiq 1 ga, 4 ga bo'linganda qoldiq 2 ga, 5 ga bo'linganda qoldiq 3 ga va 6 ga bo'linganda qoldiq 4 ga teng bo'ladigan natural sonlar nechta?

A) 3 B) 2 C) 4 D) 1

8. $y = \log_5(\text{arctg}2x + \text{arcctg}2x)$ funksiyaning $x = \frac{1}{2}$ nuqtadagi hosilasining qiymatini toping.

A) $\log_5 2$ B) 0 C) $-\log_5 2$ D) 1

9. $60°$ ga teng bo'lgan A burchakka aylana ichki chizilgan. Bu aylana burchak tomonlariga B va C nuqtalarda urinadi. Agar $BC = 2$ bo'lsa, ABC uchbrchak perimetrini toping.

A) 5 B) 7 C) *bir qiymatli aniqlab bo'lmay*di D) 6

10. To'g'ri burchakli trapetsiyaning asoslari 5 va 1 ga teng. Unga ichki chizilgan aylana radiusini toping.

A) 0,5 B) $\frac{5}{6}$ C) $\frac{1}{6}$ D) 0,2

11. Agar barcha x va y lar uchun

$$x^3 + 4x^2y + axy^2 + 3xy - bx^cy + 7xy^2 + dxy + y^2 = x^3 + y^2$$

ayniyat bajarilsa, $|a + b + c|(a + c)$ ni toping. $(c > 1)$

A) 4 B) 2 C) -5 D) -3

12. $y = 3\sin 4x + 2\sin 6x$ funksiyaning hosilasini toping.

A) $24\sin x \cdot \cos 5x$ B) $-24\cos x \cdot \sin 5x$
C) $24\cos x \cdot \cos 5x$ D) $24\sin x \cdot \sin 5x$

13. $3(\sin^4\beta+\cos^4\beta)-2(\sin^6\beta+\cos^6\beta)$ ifodaning $\beta=\frac{13\pi}{12}$ bo'lgandagi qiymatini toping.

A) $\frac{\sqrt{3}}{2}$ B) $\sqrt{3}$ C) $\frac{\sqrt{2}}{2}$ D) 1

14. Hisoblang: $\log_6\left(\sqrt{2-\sqrt{3}}+\sqrt{2+\sqrt{3}}\right)$

A) $\log_6\sqrt{3}$ B) $\log_6 2$ C) $\frac{1}{2}$ D) 1

15. $\{x|x\in\mathbb{N},-6<x<5\}$ to'plamni nechta usul bilan ikkita kesishmaydigan qism – to'plamlarga ajratish mumkin?

A) 16 B) 4 C) 8 D) 10

16. Rasmda $y=a+\frac{2}{bx+c}$ funksiyaning grafigi tasvirlangan. Quyidagilardan qaysi biri noto'g'ri?



A) $c(a-b)=0$ B) $b-a=0$ C) $bc-a^2=0$
D) $ac=0$

17. $\sqrt{3}(4^x+2^{2x-1})<3^x+3^{x+1}$ tengsizlikni yeching.

A) $(-\infty;1{,}5)$ B) $(-\infty;-1)\cup(-1;0)\cup(1;+\infty)$
C) $(0;2)$ D) $(-\infty;0)\cup(0;3)$

18. A va B to'plamlarning kamida bittasida mavjud bo'lgan barcha elementlardan tuzilgan to'plam qanday nomlanadi?

A) *Universal to'plam*
B) *A va B to'plamlarning birlashmasi*
C) *A va B to'plamlarning kesishmasi*
D) *A va B to'plamlarning ko'paytmasi*

19. Uchburchakning uchlari to'g'ri burchakli dekart koordinatalar sistemasida quyidagicha berilgan: $A(0;0),B\left(-\frac{1}{2};10\right),C(-1;0)$. Uchburchak yuzini toping.

A) 5 B) 4 C) $3\sqrt{3}$ D) $4\sqrt{2}$

20. Tenglamaning manfiy butun yechimlari nechta?

$$\log_2\left(2\sqrt{x+5}+5\right)+\log_{0,5}(-x-0{,}5)=1$$

A) 2 B) 1 C) 0 D) 3

21. $3\cdot16^x+36^x-2\cdot81^x=0$ tenglamaning ildizlari yig'indisini toping.

A) 2 B) 1 C) 0,25 D) 0,5

22. Samandar doskaga ikkita son yozdi. Uchinchi son sifatida u birinchi va ikkinchi sonlarning yig'indisini, to'rtinchi son sifatida ikkinchi va uchinchi sonlarning yig'indisini va h.k. yozdi, lekin yettinchi sonni yozmadi. So'ng dastlabki oltita sonni qo'shdi va bu yig'indini bilgan holda qo'shiluvchilardan birini aniq hisoblash mumkinligini ko'rdi. Bu qaysi qo'shiluvchi edi?

A) *uchinchi* B) *to'rtinchi* C) *beshinchi*
D) *oltinchi*

23. $D_1(f)$ to'plamda berilgan $f(x)$ va $D_2(\mathrm{g})$ to'plamda berilgan $\mathrm{g}(x)$ funksiyalarning yig'indisi deb, … $\varphi(x)=f(x)+\mathrm{g}(x)$ funksiyaga aytiladi.

A) $D_1(f)\cup D_2(\mathrm{g})$ to'plamda berilgan, bunda $D_1(f)\cap D_2(\mathrm{g})=\emptyset$

B) $D_1(f)\cap D_2(\mathrm{g})$ to'plamda berilgan, bunda $D_1(f)\cap D_2(\mathrm{g})\neq\emptyset$

C) $D_1(f)\cap D_2(\mathrm{g})$ to'plamda berilgan, bunda $D_1(f)\cap D_2(\mathrm{g})=\emptyset$

D) $D_1(f)\cup D_2(\mathrm{g})$ to'plamda berilgan, bunda $D_1(f)\cap D_2(\mathrm{g})\neq\emptyset$

24. $y>0$ bo'lsin. To'rtburchakning uchlari to'g'ri burchakli dekart koordinatalar sistemasida quydagicha berilgan: $A(0;0),B(0;y),C(-6;y)$ va $D(-8;0)$. To'rtburchak diagonallarining o'rtalari orasidagi masofani toping.

A) 1 B) *y ga bog'liq* C) $\sqrt{2}$ D) 2

25. Parallelepipedning asosi tomoni $\sqrt{2}$ ga teng kvadratlardan, barcha yon yoqlari romblardan iborat. Yuqori asosining uchlaridan biri ostki

asosining barcha uchlaridan baravar uzoqlikda joylashgan. Parallepipedning hajmini toping.

A) $\sqrt{2}$ B) 2 C) 1 D) 4

26. Hisoblang: $\operatorname{ctg}45^\circ \cdot \operatorname{ctg}15^\circ \cdot \operatorname{ctg}105^\circ$.

A) 1 B) -1 C) $\frac{\sqrt{2}}{4}$ D) $-\frac{\sqrt{2}}{4}$

27. $a^2b^2x^4 = b^4x^2 - a^2b^2 + a^4x^2$ tenglamada x ni toping. $(a \cdot b \neq 0)$

A) $\pm\frac{a}{b};\ \pm\frac{b}{a}$ B) $\pm\frac{1}{a};\ \pm\frac{1}{b}$ C) $\pm a;\ \pm b$ D) $\emptyset$

28. $a = 1$ bo'lsa, $\int_a^{a+1}\left(\sin^2 3x + \cos^2 3x\right)dx$ integralni hisoblang.

A) $\frac{\sqrt{2}-1}{3}$ B) 1 C) $\sqrt{2}$ D) $2\sqrt{2}$

29. $R = \sqrt[4]{3}$ radiusli sferaga muntazam to'rtburchakli piramida ichki chizilgan. Uchidagi barcha yassi burchak 30° ga teng bo'lsa, piramida yon sirtining yuzini toping.

A) $2\sqrt{3}$ B) 9 C) 3 D) 6

30. Teng yonli uchburchakning yon tomoniga o'tkazilgan mediana va asosi orasidagi burchak tangensi 4 ga teng. Uchburchak asosidagi burchak tangensini toping.

A) 16 B) $2\sqrt{2}$ C) 12 D) 15

MATEMATIKA

2016.5.

1. $y > 0$ bo'lsin. To'rtburchakning uchlari to'g'ri burchakli dekart koordinatalar sistemasida quydagicha berilgan: $A(1;0), B(1;y), C(2;y)$ va $D(4;0)$. To'rtburchak diagonallarining o'rtalari orasidagi masofani toping.

A) 1 B) *y ga bog'liq* C) $\sqrt{2}$ D) 2

2. $ABCD$ tetraedrning D uchidagi barcha yassi burchaklar to'g'ri. Shu tetraedrga kub shunday ichki chizilganki, kubning bitta uchi D nuqtada, unga qarama – qarshi uchi esa ABC yoqda yotibdi. Agar $DA = 2, DB = 3$ va $DC = 4$ bo'lsa, kub qirrasining uzunligini toping.

A) $\frac{11}{12}$ B) $\frac{12}{13}$ C) $\frac{17}{19}$ D) $\sqrt{2}$

3. Qaysi jism(lar)ning simmetriya o'qlari chekli sonda?

1) shar; 2) prizma; 3) konus; 4) kub

A) 2, 3 B) 2, 3, 4 C) 3, 4 D) 1

4. Asoslarining radiuslari 2 va 3 ga teng bo'lgan kesik konus va unga tengdosh silindrning balandliklari bir xil. Silindr asosining radiusini toping.

A) $\sqrt{13}$ B) $\sqrt{19}$ C) $\sqrt{6\frac{1}{3}}$ D) $\sqrt{6\frac{2}{3}}$

5. Aniq integralni hisoblang: $\int_0^2\left(x^3 - 5\sqrt[3]{x^2} + 7\right)dx$

A) $18 - 6\sqrt[3]{4}$ B) $16 - 6\sqrt[3]{4}$ C) $18 + 6\sqrt[3]{4}$ D) $16 + 6\sqrt[3]{4}$

6. $\log_{0,5}(4^x - 5 \cdot 2^x + 6) \geq -1$ tengsizlikni qanoatlantiradigan barcha butun sonlar yig'indisini toping.

A) 2 B) 0 C) -1 D) 4

7. Hisoblang: $\log_5 \frac{7\cdot 3^{n+1} - 8\cdot 3^{n-1}}{3^n + 8\cdot 3^{n-1}}$

A) 0 B) 1 C) $\log_5 2$ D) -1

8. $y = \log_5(\sin^2 x + \cos^2 x)$ funksiyaning $x = \frac{1}{2}$ nuqtadagi ikkinchi tartibli hosilasining qiymatini toping.

A) 0 B) 1 C) $-\log_5 2$ D) $\log_5 2$

9. Agar $x^2 + 20y^2 = 9xy$ bo'lsa, $\frac{x}{y}$ nisbatning eng katta qiymatini toping.

A) 2 B) 9 C) 5 D) 3

10. Beshta a_1, a_2, a_3, a_4, a_5 tub sonlar ayirmasi 6 ga teng bo'lgan arifmetik progressiya tashkil qiladi. $a_4 + a_5$ ni toping.

A) 48 B) 52 C) 42 D) 40

11. $\frac{2x+5}{6}+\frac{10}{x-3}=\frac{2x-3}{6}$ tenglamani yeching.

A) $-4{,}5$ B) 6,75 C) 4,5 D) 7

12. $a=-4$ bo'lsa,

$$\int_{a}^{a+1}(\ln(\sin^2 3x+\cos^2 3x)+1)dx$$

aniq integralni hisoblang.

A) $\frac{ln2-1}{3}$ B) $\sqrt{2}$ C) $2\sqrt{2}$ D) 1

13. Uchburchakning uchlari to'g'ri burchakli dekart koordinatalar sistemasida quyidagicha berilgan: $A(0;0), B(1;-2), C(1;0)$. Uchburchak yuzini toping.

A) $\sqrt{3}$ B) 1 C) $\sqrt{2}$ D) 2

14. $f(x)=\frac{x}{x+1}$ funksiya grafigi qaysi choraklardan o'tadi?

A) *I*, *III* – chorak B) *I*, *II* – chorak

C) *I*, *II*, *III* – chorak D) *I*, *II*, *III*, *IV* – chorak

15. $\{x|x\in\mathbb{N}, x^2\le 19\}$ to'plamning nechta qism – to'plamlari mavjud?

A) 32 B) 16 C) 19 D) 4

16. *ABC* teng yonli uchburchakka aylana ichki chizilgan (*AB*=*BC*). *E* nuqta aylananing *AB* tomonidagi urinish nuqtasi va *BE*=4, *EA*=3. *ABC* uchburchak yuzini toping.

A) 18 B) $4\sqrt{10}$ C) $6\sqrt{10}$ D) 12

17. O'zaro teng bo'lmagan x va y sonlari $x^2+16y=y^2+16x$ tenglikni qanoatlantirsa, $x+y$ ni toping.

A) 26 B) 0 C) 16 D) 24

18. Agar barcha x va y lar uchun

$$x^3+4x^2y+axy^2+3xy-bx^cy+7xy^2+dxy+y^2=x^3+y^2$$

ayniyat bajarilsa, $|a+b+c|(a+b+c-d)$ ni toping. $(c>1)$

A) -4 B) -2 C) 3 D) 2

19. Hisoblang: $\cos\frac{2\pi}{5}\cdot\cos\frac{4\pi}{5}\cdot\cos\frac{6\pi}{5}$

A) $\frac{1}{8}$ B) $\frac{1}{4}\cos\frac{\pi}{5}$ C) $-\frac{1}{4}\cos\frac{\pi}{5}$ D) $\frac{1}{4}\sin\frac{\pi}{5}$

20. $y=3\sin 4x+2\sin 6x$ funksiyaning hosilasini toping.

A) $24\cos x\cdot\cos 5x$ B) $24\sin x\cdot\sin 5x$
C) $24\sin x\cdot\cos 5x$ D) $-24\cos x\cdot\sin 5x$

21. a va b natural sonlarning eng katta umumiy bo'luvchisi 3 ga teng bo'lsa, $a+3b$ va b sonlarning eng katta umumiy bo'luvchisi nechaga teng bo'ladi?

A) 1 B) 3 C) *bir qiymatli aniqlab bo'lmaydi* D) 4

22. $2^{x+2}+5^{x+2}>5^{x+1}+2^{x+3}+2^{x+4}$ tengsizlikni yeching.

A) $(0;1)$ B) $(-1;+\infty)$ C) $[-1;0)$ D) $(0;+\infty)$

23. $\frac{\sqrt{6-x-x^2}}{x^2-1}\le 0$ tengsizlikning musbat butun yechimlari nechta?

A) 0 B) 1 C) 3 D) 2

24. $y=2+\cos\frac{x}{2}; y=0; x=0; x=\frac{2\pi}{3}$ chiziqlar bilan chegaralangan shaklning yuzini toping.

A) $\frac{4\pi}{3}+\sqrt{3}$ B) $\frac{\pi}{2}$ C) $\frac{2\pi}{3}+4$ D) $\frac{\pi}{3}+4$

25. $y=f(x)$ funksiya D to'plamda o'suvchi bo'lsin. D to'plamdan olingan ixtiyoriy a, b elementlari uchun $(a>b)$ quyidagi munosabatlardan qaysi biri o'rinli?

A) $f(b)=f(a)$ B) $f(a)<f(b)$ C) $f(b)<f(a)$
D) $f(a)\le f(b)$

26. *SABC* uchburchakli piramidaning *S* uchidagi yassi burchaklari to'g'ri burchak. *SO* – piramida balandligi. *AOB* va *BOC* uchburchaklar yuzalari mos ravishda 16 va 4 ga teng. *ASB* uchburchak yuzasining *BSC* uchburchak yuzasiga nisbatini toping.

A) *aniqlab bo'lmaydi* B) 3 C) 2 D) $\sqrt{2}$

27. Kasrning maxrajini irratsionallikdan qutqaring.

$$\frac{6}{\sqrt[3]{11}-\sqrt[3]{5}}$$

A) $\sqrt[3]{121}-\sqrt[3]{25}$ B) $\sqrt[3]{25}-\sqrt[3]{55}+\sqrt[3]{121}$

C) $\sqrt[3]{25}+\sqrt[3]{55}+\sqrt[3]{121}$ D) $\sqrt[3]{11}+\sqrt[3]{5}+\sqrt[3]{55}$

28. k ning qanday qiymatlarida

$$\frac{1}{x+1}=1-k$$

tenglama manfiy yechimga ega?

A) $k>0; k<1$ B) $k\le 0$ C) $k<1$
D) $k<0; k>1$

29. To'g'ri burchakli uchburchakning gipotenuzasi 9 ga, unga ichki chizilgan aylana radiusi 1 ga teng. Uchburchaning perimetrini toping.

A) 18 B) 28 C) 20 D) 25

30. $4-x<\sqrt{6-x}$ tengsizlikning yechimlaridan iborat bo'lgan eng kichik natural sonni toping.

A) 3 B) 5 C) 4 D) 6

MATEMATIKA

2016.6.

1. $y=-6\sin^2 x+\frac{3}{4}\cos^2 2x+2\frac{1}{4}$ funksiyaning qiymatlari sohasiga tegishli natural sonlar nechta?

A) 2 *ta* B) 3 *ta* C) 4 *ta* D) 5 *ta*

2. $a=2$ bo'lsa, $\int_a^{a+1}\left(\sin^2 2x+\cos^2 2x\right)dx$ integralni hisoblang.

A) $\frac{\sqrt{2}-1}{2}$ B)$\sqrt{2}$ C) 1 D) $2\sqrt{2}$

3. $a=-2$ bo'lsa,

$$\int_a^{a+1}(\ln(\sin^2 2x+\cos^2 2x)+1)dx$$

aniq integralni hisoblang.

A) $\sqrt{2}$ B) 1 C) $\frac{ln2-1}{3}$ D) $2\sqrt{2}$

4. $a_1, a_2, a_3, \dots, a_8$ ketma – ketlikda ixtiyoriy uchta ketma – ket hadining yig'indisi 40 ga teng. Agar ketma – ketlikning uchinchi hadi 6 ga teng bo'lsa, $a_1+a_8=?$

A) 34 B) 12 C) 36 D) 6

5. a va b natural sonlarning umumiy bo'luvchilari soni 3 ga teng bo'lsa, $a+5b$ va b sonlarning umumiy bo'luvchilari nechta?

A) 1 B) 4 C) 3 D) *bir qiymatli aniqlab bo'lmaydi*

6. 123451234512345123451234512345 sonida 10 ta raqam shunday o'chirilganki, hosil bo'lgan son eng katta bo'ldi. Shu sonning 5 – raqamini toping.

A) 2 B) 3 C) 4 D) 5

7. $\log_{\frac{1}{9}}\log_{\frac{1}{4}}\frac{x+4}{2x-1}<0$ tengsizlikni qanoatlantiradigan eng katta butun sonni toping.

A) -4 B) 0 C) -6 D) -5

8. $\{x|x\in\mathbb{N}, 6\le x^2\le 43\}$ to'plamning nechta qism – to'plamlari mavjud?

A) 5 B) 8 C) 16 D) 32

9. $2^{2x+1}-6^x-9^x=0$ tenglamani yeching.

A) 0; 1 B) -1 C) 1 D) 0

10. Qaysi jismlarning simmetriya o'qlari chekli sonda?

1) shar; 2) prizma; 3) konus

A) 3 B) 2 C) 1 D) 2; 3

11. Tenglamani yeching: $\sin\left(\frac{\pi}{5}+\frac{x}{2}\right)=\frac{\sqrt{3}}{2}$

A) $\frac{2\pi}{5}+2\pi k, k\in\mathbb{Z}$

B) $-\frac{2\pi}{5}+(-1)^k\frac{2\pi}{3}+2\pi k, k\in\mathbb{Z}$

C) $-\frac{2\pi}{5}+(-1)^k\frac{2\pi}{3}+\pi k, k\in\mathbb{Z}$

D) $\frac{2\pi}{5}+(-1)^k\frac{2\pi}{3}+2\pi k, k\in\mathbb{Z}$

12. To'g'ri burchakli uchburchakning gipotenuzasi 32 ga, unga ichki chizilgan aylana radiusi 6 ga teng. Uchburchakning perimetrini toping.

A) 76 B) 68 C) 72 D) 36

13. To'g'ri burchakli trapetsiyaning asoslari 6 va 2 ga teng. Unga ichki chizilgan aylana radiusini toping.

A) 1,5 B) 1,2 C) 1,6 D) 1,1

14. Agar $|x+3| = \frac{x}{2} + a$ tenglama a parametrning nechta natural qiymatida yechimga ega emas?

A) 0 B) 2 C) 3 D) 1

15. Rasmda $y = f'(x)$ funksiyaning grafigi tasvirlangan. $y = f(x)$ funksiyaning $-3 < x \le 0$ oraliqdagi o'sish oralig'ini toping.



A) $(-3;-1)$ B) $(-3;0)$ C) $(-\infty;-3)$ D) $(-1;0)$

16. $y > 0$ bo'lsin. To'rtburchakning uchlari to'g'ri burchakli dekart koordinatalar sistemasida quydagicha berilgan: $A(1;0), B(1;y), C(8;y)$ va $D(10;0)$. To'rtburchak diagonallarining o'rtalari orasidagi masofani toping.

A) 1 B) 2 C) $\sqrt{2}$ D) *y ga bog'liq*

17. Agar $f(x) = 13^x \cdot 3x$ bo'lsa, $f'(x) > 0$ tengsizlikni yeching.

A) $(-\log_{13} e\,; \infty)$ B) $(-\log_{13} e\,; e)$

C) $(-2\log_{13} e\,; \infty)$ D) $(-\infty; -\log_{13} e)$

18. $\sqrt{x+3} > x+1$ tengsizlikning butun musbat yechimlari nechta?

A) 2 B) 3 C) 5 D) *butun musbat yechimga ega emas*

19. $x = -y, z = 3$ bo'lsa, $\frac{x^3+y^3+z^3-3xyz}{x^2+y^2+z^2-xy-yz-xz}$ ifodaning qiymatini toping.

A) -3 B) 0 C) 3 D) 1

20. Asoslarining radiuslari 2 va 5 ga teng bo'lgan kesik konus va unga tengdosh silindrning balandliklari bir xil. Silindr asosining radiusini toping.

A) $\sqrt{13\frac{2}{3}}$ B) $\sqrt{29}$ C) $\sqrt{13}$ D) 7

21. $\alpha+\beta+\gamma = \pi$, $\cos\frac{\alpha}{2}\cos\frac{\beta}{2}\cos\frac{\gamma}{2} = \frac{1}{4}$ bo'lsa, $\sin\alpha + \sin\beta + \sin\gamma$ ning qiymatini toping.

A) 2 B) $\sqrt{2}$ C) $\sqrt{2+\sqrt{2}}$ D) 1

22. Agar barcha x, y lar uchun

$$x^3 + 4x^2y + axy^2 + 3xy - bx^cy + 7xy^2 + dxy + y^2 = x^3 + y^2$$

ayniyat bajarilsa, $a - b + c + d$ ni toping. $(c > 1)$

A) -10 B) -12 C) -16 D) 4

23. Uchburchakning uchlari to'g'ri burchakli dekart koordinatalar sistemasida quyidagicha berilgan: $A(0;0), B(-1;-2), C(-2;0)$. Uchburchak yuzini toping.

A) $2\sqrt{2}$ B) $2\sqrt{3}$ C) 2 D) 3

24. Ifodani soddalashtiring:

$$\cos^4 4\alpha + \sin 8\alpha - \sin^4 4\alpha$$

A) $\sqrt{2}\cos(8\alpha - 45°)$ B) $-\sqrt{2}\cos(4\alpha - 45°)$

C) $\sqrt{2}\sin(4\alpha - 45°)$ D) $\sqrt{2}\sin(8\alpha - 45°)$

25. Rasmda $y = f(x)$ funksiya grafigi berilgan. $y = f(x)$ funksiya ekstremum nuqtalari koordinatalari yig'indisini toping. $(x \in [-3;1])$

A) -3 B) -2 C) -1 D) -5



26. Hisoblang: $\log_2\left(\frac{1}{5\sqrt{2}-7} - \frac{10}{\sqrt{2}} + 7\right)$

A) 0 B) 7 C) $\log_2\frac{7\sqrt{2}}{2}$ D) $\log_2 14$

27. Funksiyaning qiymatlar sohasiga tegishli tub sonlar nechta?

$$y = 4\sin^2 2x + 4\sqrt{3}\sin x\cos x + 1{,}5\cos 4x + 1{,}5 - 2\sqrt{3}$$

A) 1 *ta* B) 0 *ta* C) 3 *ta* D) 2 *ta*

28. Teng yonli ABC uchburchakning AC asosida D nuqta shunday olinganki, AD=21, DC=23 tengliklar bajariladi. ABD va DBC uchburchaklarga ichki chizilgan aylanalar BD to'g'ri chiziqqa mos ravishda M va N nuqtalarda urinadilar. MN kesma uzunligini toping.

A) $\sqrt{3}$ B) 2 C) $\sqrt{2}$ D) 4

29. 4434 va 4435 sonlarining umumiy natural bo'luvchilari nechta?

A) 2 B) 0 C) 1 D) 3

30. Tenglamani yeching:

$$\left(1-\frac{1}{x}\right)\cdot\left(1-\frac{1}{x-1}\right)\cdot\left(1-\frac{1}{x-2}\right)\cdot\ldots\cdot\left(1-\frac{1}{3}\right)\cdot\left(1-\frac{1}{2}\right)=\frac{1}{2016}$$

A) 2016 B) 2015 C) 2014 D) 2013

MATEMATIKA

2016.7.

1. Tenglamani yeching: $2^{x-2}+2^{x-3}+2^{x-4}=224$

A) 7 B) 10 C) 11 D) 9

2. O'zaro teng bo'lmagan x va y sonlari $x^2+24y=y^2+24x$ tenglikni qanoatlantirsa, $x+y$ ni toping.

A) 24 B) 12 C) 0 D) 34

3. a va b natural sonlarning eng katta umumiy bo'luvchisi 6 ga teng bo'lsa, $a+3b$ va b sonlarning eng katta umumiy bo'luvchisi nimaga teng.

A) 1 B) 6 C) 4 D) *bir qiymatli aniqlab bo'lmaydi*

4. $2\sqrt{1-x^2}=x-2$ tenglamani yeching.

A) $\frac{4}{5}$ B) 0 C) $\emptyset$ D) 0; $\frac{4}{5}$

5. Poyezd 2 minutda 5 kilometr masofani, motosikl 3 minutda 4 kilometr masofani bosib o'tadi. Motosiklchining tezligi poyezd tezligining necha foizini tashkil etadi?

A) $67\frac{2}{3}\%$ B) $53\frac{1}{3}\%$ C) $66\frac{2}{3}\%$ D) 70%

6. 60° ga teng bo'lgan A burchakka aylana ichki chizilgan. Bu aylana burchak tomonlariga B va C nuqtalarda urinadi. Agar $BC=3$ bo'lsa, $AB+AC$ ni toping.

A) 6 B) 3 C) *bir qiymatli aniqlab bo'lmaydi* D) 4

7. $\dfrac{\frac{1}{\sqrt{a}+\sqrt{b}}+\frac{1}{\sqrt{a}-\sqrt{b}}}{\frac{1}{\sqrt{a}-\sqrt{b}}-\frac{\sqrt{b}}{a-b}}$ ni soddalashtiring. $(a>0, b>0, a\neq b)$

A) $2a$ B) -2 C) 2 D) $-2a$

8. ABC uchburchakning har bir tomoni chizmada ko'satilgandek o'z uzunligiga teng uzunlikda davom ettirilgan. Agar A'B'C' uchburchak yuzasi 28 teng bo'lsa, ABC uchburchak yuzasini toping.



A) 2 B) 5 C) 3 D) 4

9. Tenglamalar sistemasini yeching va $x+y+z$ ni toping.

$$\begin{cases}2x-y+2z=7\\2x+5y-z=11\\4x-3y+z=7\end{cases}$$

A) 1 B) 5 C) 3 D) 4

10. 3234 va 3235 sonlarning umumiy natural bo'luvchilari nechta?

A) 4 B) 2 C) 0 D) 1

11. Prizmaning qirralari soni 72 ga teng. Uning yoqlari sonini toping.

A) 26 B) 72 C) 24 D) *bir qiymatli aniqlab bo'lmaydi*

12. Rasmda $y=a+\frac{2}{bx+c}$ funksiya grafigi tasvirlangan. quyidagilardan qaysi biri doim o'rinli.



A) $ac^3 + b > 0$ B) $c^3 - b^3 > 0$ C) $abc > 0$ D) $bc > 0$

13. Hisoblang:

$$(1 + \text{tg}7°)(1 + \text{tg}8°)(1 + \text{tg}37°)(1 + \text{tg}38°)$$

A) 8 B) 16 C) 2 D) 4

14. $(0{,}2)^{\frac{1}{2}\log_5 4 - \log_{25} 16}$ ni hisoblang.

A) $\sqrt{2}$ B) 4 C) 2 D) 8

15. $y = 3\cos^2 x + \sin^2 x$ funksiya nechta butun qiymatni qabul qiladi?

A) *cheksiz ko'p* B) 3 C) 0 D) 2

16. Muntazam uchburchakli piramida asosining tomonidan unga ayqash yon qirraga perpendikulyar bo'lgan tekislik o'tkazilgan. Kesuvchi tekislik yon qirrani uchidan hisoblaganda 3:2 nisbatda kesadi. Asos tomoni $6\sqrt{2}$ ga teng bo'lsa, piramida yon sirtining yuzini toping.

A) 54 B) 72 C) 90 D) 108

17. ABCD trapetsiyaning AD va BC asoslari mos ravishda 9 va 5 ga teng. Agar ACD uchburchakning yuzi 18 ga teng bo'lsa, berilgan trapetsiyaning yuzini toping.

A) 22 B) 28 C) 24 D) 32

18. $\{x | x \in N, 2 \le x^2 \le 34\}$ to'plamni nechta bo'sh bo'lmagan qism – to'plami mavjud?

A) 15 B) 16 C) 34 D) 5

19. $y = \frac{1}{\sqrt{x}}; y = 0; x = 1; x = 4$ chiziqlar bilan chegaralangan shaklning yuzini toping.

A) 8 B) 0,5 C) 4 D) 2

20. Rasmda $y = f'(x)$ funksiya grafigi berilgan. $y = f(x)$ funksiya ekstremum nuqtalari absissalari o'rta arifmetigini toping. $x \in [-3; 1]$



A) -2 B) $-0{,}5$ C) -1 D) $-1{,}5$

21. Bir odam shunday vasiyat qildi: Naqd n dirham pulim bor. Bir kishiga qarz ham berganman. Qarzning miqdori o'g'lim oladigan merosga teng. Ikkala o'g'lim barobar meros olishsin. Ukamga jami merosning $1/5$ qismini va yana 1 dirham beringlar. Ul kishining o'g'illari necha dirhamdan meros olishgan.

A) $\frac{4n-5}{6}$ B) $\frac{4n+3}{6}$ C) $n - 4$ D) $\frac{2n+5}{3}$

22. $y = f(x)$ funksiya grafigi berilgan bo'lib, uni parallel ko'chirish yordamida $y = f(x + a) - b$ funksiya grafigi hosil qilingan. Bunday parallel ko'chirishda koordinata boshi qaysi nuqtaga ko'chadi?

A) $N(-a; b)$ B) $N(a; -b)$

C) $N(a; b)$ D) $N(-a; -b)$

23. $a_1, a_2, \dots, a_8$ ketma – ketlikda ixtiyoriy uchta ketma – ket hadining yig'indisi 40 ga teng. Agar ketma – ketlikning uchinchi hadi 6 ga teng bo'lsa, birinchi va sakkizinchi hadlarining yig'indisi nechaga teng.

A) 6 B) 34 C) 12 D) 36

24. $x^8 - 18x^4 + 32 \le 0$ tengsizlikning barcha butun yechimlari ko'paytmasini toping.

A) 4 B) 2 C) -4 D) -2

25. Rasmga ko'ra $\angle BAD = 40°, BD = BC$ bo'lsa, $\angle DCB$ ni toping.



A) 40° B) 50° C) 80° D) 70°

26. $y = 3 + (a-1)x + ax^2$ parabolaning uchi y o'qi ustida bo'lsa, a ni toping.

A) 1 B) 3 C) 2 D) 0

27. Qaysi jismlarning simmetriya o'qlari chekli sonda?

1) shar; 2) prizma; 3) konus

A) 3 B) 1 C) 2, 3 D) 2

28. Uchburchakning uchlari to'g'ri burchakli dekart koordinatalar sistemasida quyidagicha berilgan: $A(0;0), B(1;1), C(2;0)$. Uchburchakning yuzini toping.

A) 1 B) 2 C) $\sqrt{3}$ D) $\sqrt{2}$

29. $|x^2 - 4ax| = a$ tenglama uchta haqiqiy yechimga ega bo'ladigan a ning barcha qiymatlari yig'indisini toping.

A) $\frac{1}{4}$ B) -1 C) 1 D) 0

30. $a = 3$ bo'lsa, $\int_a^{a+1} \left(\ln\left(\sin^2 3x + \cos^2 3x\right) + 1\right) dx$ aniq integralni hisoblang.

A) 1 B) $\frac{\ln 2 - 1}{3}$ C) $2\sqrt{2}$ D) $\sqrt{2}$

MATEMATIKA

2016.8.

1. Rasmga ko'ra $\angle BAD = 40°, BD = BC$ bo'lsa, $\angle DCB$ ni toping.



A) 80° B) 70° C) 40° D) 50°

2. 2 va 162 sonlari orasiga shunday 3 ta son qo'yildiki, ular birgalikda ishorasi almashinuvchi geometrik progressiyani tashkil qildi. Oraga qo'yilgan sonlar yig'indisini toping.

A) 78 B) 0 C) 42 D) -42

3. $-b^{\frac{1}{3}} + \frac{a^{-\frac{4}{3}}b^{-2} - a^{-2}b^{-\frac{4}{3}}}{a^{-\frac{5}{3}}b^{-2} - a^{-2}b^{-\frac{5}{3}}} + a^{\frac{1}{3}}$ ni soddalashtiring. $(a \neq b; a \cdot b \cdot (a-b) \neq 0)$

A) 1 B) $a^{\frac{1}{3}} - b^{\frac{1}{3}}$ C) $a^{\frac{1}{3}} + b^{\frac{1}{3}}$ D) $2a^{\frac{1}{3}}$

4. $\left(1+\frac{2}{3}\right)\left(1+\frac{2}{4}\right)\left(1+\frac{2}{5}\right)\ldots\left(1+\frac{2}{98}\right)$ ni hisoblang.

A) 1 B) 980 C) 625 D) 825

5. $y = f(x)$ funksiya grafigi berilgan bo'lib, uni parallel ko'chirish yordamida $y = f(x-a) + b$ funksiya grafigi hosil qilingan. Bunday parallel ko'chirishda koordinata boshi qaysi nuqtaga ko'chadi?

A) $N(-a;b)$ B) $N(-a;-b)$

C) $N(a;b)$ D) $N(a;-b)$

6. Hisoblang: $\frac{1}{\log_3 9} + \frac{1}{\log_9 9} + \frac{1}{\log_{27} 9} + \frac{1}{\log_{81} 9} + \frac{1}{\log_{243} 9} + \frac{1}{\log_{729} 9} + \frac{1}{\log_{2187} 9}$.

A) 15 B) 13 C) 12 D) 14

7. $|x+4| = \frac{x}{2} + a$ tenglama a parametrning nechta natural qiymatida yechimga ega emas?

A) 0 B) 3 C) 2 D) 1

8. $\{x | x \in N, 2 \leq x^2 \leq 29\}$ to'plamni nechta usul bilan ikkita kesishmaydigan qism – to'plamlarga ajratish mumkin?

A) 29 B) 8 C) 12 D) 1

9. Uchta brigadada jami 2580 ta ishchi ishlaydi. Birinchi brigadada ikkinchisiga qaraganda 177 ta ishchi ko'p ishlaydi. Uchinchi brigadada ikkinchisiga qarganda 2,5 marta ko'p ishchi ishlaydi. Har bir brigada qanchadan ishchi ishlaydi?

A) 720; 530; 1330 B) 705; 535; 1340

C) 711; 534; 1335 D) 700; 550; 1330

10. $2\sqrt{2}$ radiusli sferaga muntazam to'rtburchakli piramida ichki chizilgan. Uchidagi yassi burchagi $45°$ ga teng bo'lsa, piramida yon sirtining yuzini toping.

A) 36 B) 32 C) 28 D) $16\sqrt{2}$

11. $[200;700]$ kesmada 2, 3, 5 va 7 sonlariga bo'linganda qoldiq 1 ga teng bo'ladigan natural sonlar nechta?

A) 1 B) 3 C) 2 D) 4

12. Uchburchakning uchlari to'g'ri burchakli dekart koordinatalar sistemasida quyidagicha berilgan: $A(0;0), B(1;1), C(2;0)$. Uchburchak yuzini toping.

A) $\sqrt{3}$ B) 1 C) $\sqrt{2}$ D) 2

13. a ning qanday qiymatida $y = x^2 - 2x + 2$ funksiyaning qiymatlar sohasi bilan $y = \sqrt{2x - 4a}$ funksiyaning aniqlanish ustma – ust tushadi?

A) 2 B) 1 C) 0,5 D) 4

14. To'g'ri burcchakli uchburchakning perimetri 24 *dm*, yuzi 24 dm^2 ga teng. uchburchakning katetlari (*dm*) uzunligini toping.

A) 6 va 8 B) 6 va 7 C) 4 va 6 D) 7 va 8

15. Quyidagi ko'pyoqlardan qaysi birida 6 ta qirra bor?



A) 2 B) 1,3 C) 1 D) 3

16. Agar $x^2 + 36y^2 = 13xy$ bo'lsa, $\frac{x}{y}$ nisbatning eng katta qiymatini toping.

A) 4 B) 5 C) 9 D) 13

17. $\frac{x+6}{x(x-7)} - \frac{4}{(7-x)^2} = \frac{1}{x-7}$ tenglamani yeching.

A) 21 B) 2,1 C) 42 D) 4,2

18. $a = -b, c = -2$ bo'lsa,

$$\frac{c(a-b)^3 + a(b-c)^3 + b(c-a)^3}{c^2(b-a) + b^2(a-c) + a^2(c-b)}$$

ifodaning qiymatini toping.

A) 2 B) 0 C) 1 D) -2

19. $f(x) = |6 - 5x + x^2|$ funksiyaning $[-1;6]$ kesmadagi qiymatlar to'plamini toping.

A) $[0;12]$ B) $(0;12)$ C) $[0;+\infty)$ D) $[0;12)$

20. Ifodaning eng kichik qiymatini toping:

$$\frac{1}{8}\cos 4\alpha + \sin^2 2\alpha.$$

A) 0,125 B) 0,5 C) $-0,125$ D) 0,875

21. $a_1, a_2, \dots, a_8$ ketma – ketlikda ixtiyoriy uchta ketma – ket hadining yig'indisi 40 ga teng. agar ketma – ketlikning uchinchi hadi 9 ga teng bo'lsa, birinchi va sakkizinchi hadlarining yig'indisi nechaga teng.

A) 31 B) 9 C) 33 D) 18

22. Rasmda $y = f'(x)$ funksiyaning grafigi tasvirlangan. $[-3;3]$ kemadagi $y = f(x)$ funksiyaning nechta maksimum nuqtasi bor?



A) 1 B) 2 C) -1 D) 3

23. Agar barcha x va y lar uchun $x^3 + 4x^2y + axy^2 + 3xy - bx^cy + 7xy^2 + dxy + y^2 = x^3 + y^2$ ayniyat bajarilsa, $|a+b+c|(a+b)$ ni toping.$(c > 1)$

A) -3 B) 2 C) -1 D) -2

24. To'g'ri tenglikni aniqlang:

A) $\left(\log_5\left(5\sin^2\frac{4\pi}{11} + 5\sin^2\frac{3\pi}{22}\right) - 1\right)^0 = 1$

B) $\left(\sqrt{x-2}\right)^2 = |x-2|$

C) $(-2)^{\frac{1}{3}} = \sqrt[3]{2}$

D) $\frac{4(n^2-n-2)}{5(2-n)} = -\frac{4}{5}(n+1), n \neq 2$

25. Teng yonli uchburchakning yon tomoniga o'tkazilgan mediana va asosi orasidagi burchak tangensi 4 ga teng. Uchburchakning asosidagi burchak tangensini toping.

A) 15 B) $2\sqrt{2}$ C) 16 D) 12

26. Ushbu $f(x) = \frac{x+3}{x+4}$ funksiyaning boshlang'ich funksiyasini toping.

A) $x + 4\ln|x+4| + C$ B) $\frac{2x^2}{(x+4)^2} + C$

C) $x - \ln|x+4| + C$ D) $\ln(x+4)^2 + C$

27. $\frac{(x-4)(x+2)^2(x-8)}{(x+1)(x-7)} \leq 0$ tengsizlikni yeching.

A) $(-1;4) \cup (7;8) \cup \{-2\}$ B) $(-1;4] \cup (7;8]$

C) $(-1;4] \cup (7;8] \cup \{-2\}$ D) $(-1;4) \cup (7;8)$

23. Rasmdag shtrixlangan soha yuzi aniqlansin. Bu yerda Ab, AD, Bd – doiralarning diametrlari, O_1, O_2, O_3 – doiralarning markazlari va $Ab=8=4AC=4CO_1=4O_1D=4DB$.



A) 32π B) 16π C) 8π D) 4π

24. To'g'ri burchakli uchburchakning gipotenuzasiga tushirilgan balandligi va bissektrisasi mos ravishda h va l ga teng bo'lsa, uchburchakning yuzasini toping.

A) $h^2 - l^2$ B) $h \cdot l$ C) $\frac{l^2h^2}{h^2+l^2}$ D) $\frac{l^2h^2}{2h^2-l^2}$

25. $\int_0^1 2x^3 dx$ integralni hisoblang.

A) $\frac{1}{4}$ B) $\frac{1}{2}$ C) $\frac{2}{3}$ D) $\frac{3}{5}$

26. To'rtburchakli muntazam prizma diagonali d ga teng bo'lib, yon yoq tekisligi bilan α burchak tashkil etadi. Prizma hajmini toping.

A) $d^3 \sin^2\alpha \cdot \sqrt{\cos\alpha}$ B) $d^3 \sin^3\alpha \cdot \sqrt{\sin 2\alpha}$

C) $d^3 \sin^2\alpha \cdot \sqrt{\cos 2\alpha}$ D) $d^3 \sin^3\alpha \cdot \sqrt{\cos 2\alpha}$

27. Hisoblang:

$$\log_2\left(\frac{3}{0,(4)}+\frac{3}{0,(6)}+\frac{3}{0,(8)}+1{,}375\right)$$

A) 1 B) 4 C) $\log_2 3$ D) 2

29. $a = 1$ bo'lsa, $\sqrt{2a-\sqrt{a^2+2}} \cdot \sqrt{2a+\sqrt{a^2+2}}$ ifodaning qiymatini toping.

A) $\sqrt{3}$ B) 1 C) $\sqrt{5}$ D) 2

30. To'la sirti $36\,sm^2$ bo'lgan kubning ayqash qirralari o'rtalari orasidagi masofani toping.

A) 3 B) 4 C) 6 D) 9

MATEMATIKA

2016.17.

1. $a = -4$ bo'lsa,

$$\int_a^{a+1} (\ln(\sin^2 2x + \cos^2 2x) + 1)dx$$

aniq integralni hisoblang.

A) $\frac{\ln 2-1}{2}$ B) $2\sqrt{2}$ C) 1 D) $\sqrt{2}$

2. $3^{3x} - 3^x = 702$ tenglamani yeching.

A) 2 B) 4 C) 5 D) 3

3. $1, 2, 3, 4, 5, 6$ raqamlardan faqat bir martadan foydalanib ikkita uch xonali sonlar hosil qilish mumkin, masalan, 645 va 321. Bu raqamlardan ikkita uch xonali sonlar tuzilganda, ular musbat ayirmasining eng kichik qiymati nechaga teeng bo'ladi?

A) 48 B) 47 C) 56 D) 69

4. Akvariumning bo'yi 80 *sm*, eni 60 *sm*, balandligi 40 *sm*. Suv sathi yuqoridan 10 *sm* pastda bo'lishi uchun akvariumga necha litr suv quyish kerak?

A) 288 B) 144 C) 140 D) 72

5. To'g'ri burchakli ABC uchburchak CD balandlik bilan BCD va ACD uchburchaklarga bo'lingan. Shu uchburchaklar yarim perimetrlari mos ravishda 20 va 21 ga teng. ABC uchburchakning yarim perimetrini toping.

A) $24\sqrt{2}$ B) 26 C) 42 D) 29

6. $y = f(x)$ funksiyada D to'plamda noqat'iy kamayuvchi bo'lsin. D to'plamdan olingan ixtiyoriy a, b elementlar uchun $(a > b)$ quyidagi munosabatlarning qaysi biri o'rinli?

A) $f(a) \le f(b)$ B) $f(b) \le f(a)$ C) $f(a) < f(b)$

D) $f(a) = f(b)$

7. Quyidagi ko'pyoqlarning qayisi birida 4 ta yoq bor?



A) 1, 3 B) 3 C) 1 D) 2

8. Hisoblang : $\sin\frac{\pi}{18}\sin\frac{5\pi}{18}\sin\frac{7\pi}{18}$

A) $\frac{1}{8}$ B) $\frac{\sqrt{2}}{4}$ C) $\frac{\sqrt{2}}{2}$ D) $\frac{\sqrt{3}}{8}$

9. $y > 0$ bo'lsin. To'rtburchakning uchlari to'g'ri burchakli dekart koordinatalar sistemasida

quydagicha $A(0;0), B(0;y), C(10;y), D(12;0)$ berilgan. To'rtburchak dioganallarining o'rtalari orasidagi masofani toping.

A) 1 B) $\sqrt{2}$ C) 2 D) *y ga bog'liq*

10. Rasmda $y = a + \frac{b}{x+c}$ funksiya grafigi tasvirlangan. Quydagilardan qaysi biri doim o'rinli?



A) $a^3 - b^3 > 0$ B) $C^2 - b^2 > 0$ C) $a^2 - b^2c > 0$

D) $abc > 0$

11. $\frac{2-x^2-x}{x^2+x} \geq 0$ tengsizlikni yeching.

A) $[-2;-1] \cup (0;1)$ B) $[-2;-1) \cup (0;1)$

C) $(-5;-2] \cup [1;3)$ C) $[-5;-2) \cup (1;3]$

12. $\begin{cases} x^2 + y^2 + xy = 3 \\ x^4 + y^4 = 2 \end{cases}$ tenglamalar sistemasining manfiy sonlardan iborat $(x;y)$ yechimlar juftligi sonini toping.

A) 1 B) 2 C) 0 D) 3

13. $y = \log_5(\sin^2 x + \cos^2 x)$ funksiyaning $x = \frac{1}{2}$ nuqtadagi hosilasini toping.

A) $-\log_5 2$ B) $\log_5 2$ C) 1 D) 0

14. O'zaro teng bo'lmagan x va y sonlari $x^2 + 26y = y^2 + 26x$ tenglikni qanoatlantirsa, $x + y$ ni toping.

A) 26 B) 0 C) 16 D) 24

15. $\sqrt[3]{x-2} - \sqrt[3]{x-4} = -\sqrt[3]{3x-8}$ tenglama nechta butun yechimga ega?

A) 0 B) 2 C) 1 D) 3

16. Hisoblang:

$$\log_{2\sqrt{2}}\left(\left(1+\frac{1}{2}\right)\left(1+\frac{1}{3}\right)\left(1+\frac{1}{4}\right)\ldots\left(1+\frac{1}{15}\right)\right)$$

A) -3 B) 3 C) 2 D) $\frac{1}{2}$

17. ABCD to'rtburchakning har bir tomoni chizmada ko'rsatilgandek o'z uzunligiga teng uzoqlikda davom ettirilgan. Agar $A'B'C'D'$ to'rtburchak yuzasi 5 ga teng bo'lsa, ABCD to'rtburchak yuzasini toping.



A) 4 B) 2,5 C) 3 D) 1

18. Hisoblang: $1{,}5 + \text{tg}^2\left(\arccos\frac{1}{3}\right)$

A) 8,5 B) 9,5 C) 7 D) -7,5

19. To'g'ri burchakli uchburchak tomonlariga yasalgan kvadratlar yuzalarining yig'indisi 48 ga teng. Gepotenuza uzunligini toping.

A) 10 B) $2\sqrt{6}$ C) $2\sqrt{3}$ D) 12

20. Nechta butun son

$$\log_{0,5}(4^x - 5 * 2^x + 6) \geq -1$$

tengsizlikning yechimi bo'ladi?

A) 1 B) 2 C) *cheksiz ko'p* D) 3

21. Ushbu $f(x) = \frac{2x+1}{x^2+x-2}$ funksiyaning boshlang'ich funksiyasini toping.

A) $\ln(|x-1| \cdot |x+2|) + C$ B) $\frac{2x^2}{(x-1)(x+2)} + C$

C) $\ln|x+2| + C$ D) $\ln(x-1) + C$

22. Velosipedchi tepalikka 12 *km/soat* tezlik bilan chiqdi. Chiqqan yo'li orqali 20 *km/soat* tezlik bilan pastga tushdi va chiqishdagiga qaraganda 16 *min* kamroq vaqt sarfladi. Yo'lning uzunligini (*km*) toping.

A) 12 B)10 C) 8 D) 14

23. Uchburchakning uchlari to'g'ri burchakli dekart koordinatalar sistemasida quydagicha berilgan: $A(0;0)$, $B\left(\frac{1}{2};2\right), C(1;0)$. Uchburchak yuzini toping.

A) $\sqrt{3}$ B) 1 C) 2 D) $\sqrt{2}$

24. Agar barcha x va y lar uchun

$$x^3+4x^2y+axy^2+3xy-bx^cy+7xy^2+dxy+y^2 = x^3+y^2$$

ayniyat bajarilsa, $|a+b+c|(a+b+c+d)$ ni toping $c>1$.

A) 2 B) -1 C) -4 D) -3

25. Rasmda $y=f'(x)$ funksiya grafigi tasvirlangan. $y=f(x)$ funksiyaning $3>x\geq 0$ oraliqdagi o'sish oralig'ini toping.



A) $(0;2)\cup(3;\infty)$ B) $\left(0;\frac{1}{2}\right)\cup(2;\infty)$
C) $(1;3)$ D) $(0;1)$

26. $y=-x^2+6x-1$ funksiyaning simmetriya o'qi koordinatasi va $(5;8)$ nuqta orasida masofani toping.

A) 3 B) 8 C) 2 D) 7

27. R radiusli sferaga muntazam to'rtburchakli piramida ichki chizilgan. Uchidagi yassi burchagi 30° ga teng bo'lsa, piramida yon sirtining yuzini toping.

A) $2R^2$ B) $3R^2\sqrt{3}$ C) $R^2\sqrt{3}$ D) $2R^2\sqrt{3}$

28. $\{x : x\epsilon N, 6\leq x^2\leq 42\}$ to'plamning nechta qism to'plamlari mavjud.

A) 8 B) 32 C) 16 D) 5

29. a va b natural sonlarning eng katta umumiy bo'luvchisi 3 ga teng bo'lsa, $a+3b$ va b sonlarning eng katta umumiy bo'luvchisi nimaga teng?

A) 4 B) *bir qiymatli aniqlab bo'lmaydi* C) 1 D) 3

30. Arifmetik progressiya $n-$hadi $a_n=-\frac{n+1}{5}$ ga teng. Progressiyaning ayirmasini toping.

A) -2 B) $-0{,}2$ C) -1 D) $-0{,}5$

MATEMATIKA

2016.18.

1. $x^{\lg 5}\cdot 5^{-\lg x}=1$ tenglamani yeching.

A) $(0;+\infty)$ B) $\{-1\}\cup(1;+\infty)$ C) $(-1;1)$ D) $(0;1)$

2. $9^{\sin^2 x}-9^{\cos^2 x}=8$ tenglamaning $[0;2\pi]$ kesmadagi ildizlari yig'indisini toping.

A) 270° B) 540° C) 360° D) 630°

3. $y=-6\sin^2 x+\frac{3}{4}\cos^2 2x+2\frac{1}{4}$ funksiyaning eng kichik butun qiymatining eng katta manfiy butun qiymatiga nisbatini toping.

A) $\frac{1}{3}$ B) 3 C) -1 D) -3

4. C nuqta – AB kesmaning o'rtasi. AC va BC kesmalarda mos ravishda M, N nuqtalar shunday olinganki, AM:MC=CN:NB munosabat bajariladi. Agar AB kesma uzunligi 36 ga teng bo'lsa, MN kesma uzunligini toping.

A) 12 B) 9 C) 24 D) 18

5. Rasmda $y=f'(x)$ funksiya grafigi tasvirlangan. $y=f(x)$ funksiya grafigi $x_1=2$ va $x_2=3$ abssisali nuqtalarda o'tkazilgan urinmalar orasidagi o'tkir burchakni aniqlang.



A) $\frac{\pi}{3}$ B) $\frac{\pi}{4}$ C) 0 D) $\frac{\pi}{6}$

6. Quydagi ko'pyoqlardan qaysi birida 5 ta yoq, 9 ta qirra bor?



A) 1 B) 1, 2 C) 2 D) 3

7. $5 \cdot 0{,}2^{\lg x} > 0{,}04^{\lg 2}$ tengsizlikni yeching.

A) $(10; 50)$ B) $(10;50]$ C) $(0;40)$ D) $[1;40]$

8. Velosipedchi tepalikka 12 *km/soat* tezlik bilan chiqdi. Chiqqan yo'li orqali 20 *km/soat* tezlik bilan pastga tushdi va chiqishdagiga qaraganda 16 *min* kamroq vaqt sarfladi. Yo'lning uzunligini (*km*) toping.

A) 14 B)8 C) 12 D) 10

9. Aylanaga tashqi chizilgan ABCD to'rtburchakda AB va CD tomonlar uzunliklari mos ravishda 2 va 3 ga teng bo'lsa AD+BC ni toping.

A) 5 B) 3 C) 6 D) 2

10. Beshta a_1, a_2, a_3, a_4, a_5 tub sonlar ayirmasi 6 ga teng bo'lgan arfmetik progressiyani tashkil qiladi. a_3 ni toping.

A) 19 B) 17 C) 23 D) 11

11. $y = \ln\left(\text{arctg}3x + \text{arcctg}3x - \frac{\pi}{2} + 1\right)$ funksiyaning $x = \frac{1}{2}$ nuqtadagi qiymatini hisoblang.

A) $-\ln 2$ B) 1 C) 0 D) $\ln 2$

12. $y = 4 - x^2$; $y = 0$ chiziqlar bilan chegaralangan shaklning yuzini toping.

A) $8\frac{2}{3}$ B) 8 C) $10\frac{2}{3}$ D) 12

13. Poyezd 5 *minut*da 9 *km* masofani, motosikl 6 *minut*da 9 *km* masofani bosib o'tdi. Motosiklchining tezligi poyezd tezligining necha foizini tashkil etadi.

A)80% B) $81\frac{2}{3}\%$ C) $83\frac{1}{3}\%$ D) $63\frac{1}{3}\%$

14. Agar $\text{ctg}^2\alpha = 1{,}5$ va $\alpha\epsilon\left(0;\frac{\pi}{2}\right)$ bo'lsa, $\cos^2\alpha - \sin^2\alpha$ ni hisoblang.

A) $\frac{1}{5}$ B) $\frac{1}{4}$ C) $\frac{1}{2}$ D) $-\frac{1}{5}$

15. Qirralari 13, 11va 17 bo'lgan parallelopiped qirrasi 1 ga teng bo'lgan kubchalardan tashkil topgan. Parallelopipeddan 1 kubcha qalinligidagi tashqi sirt olib tashlash uchun nechta kubcha olinishi kerak.

A) 944 B) 511 C) 946 D) 513

16. To'g'ri burchakli ABC uchburchak CD balandlik bilan BCD va ACD uchburchaklarga bo'lingan. Shu uchburchaklarga ichki chizilgan aylanalar radiuslari mos ravishda 5 va 12 ga teng. ABC uchburchakka ichki chizilgan aylana radiusini toping.

A) $8\sqrt{2}$ B) 13 C) 14 D) 17

17. $|x^2 - 2x| \le x$ tengsizlikni qanoatlantruvchi tub sonlar yig'indisini toping.

A) 5 B) 10 C) 2 D) 3

18. $2\sqrt{2}$ radiusli sferaga muntazam to'rtburchakli piramida ichki chizilgan. Uchidagi yassi burchagi 45° ga teng bo'lsa, piramida yon sirtining yuzini toping.

A) 28 B) 32 C)$16\sqrt{2}$ D) 36

19. $\{x: x\epsilon N, x^2 < 33\}$ to'plamni nechta usul bilan ikkita kesishmaydigan qism to'plamlarga ajratish mumkin?

A) 16 B) 33 C) 5 D) 32

20. Agar $m = 64$ bo'lsa,

$$\log_7\left(\frac{\sqrt{m}+27}{\sqrt[3]{m}-2\sqrt[6]{m}-15} : \frac{\sqrt[3]{m}-3\sqrt[6]{m}+9}{\sqrt[3]{m}-25}\right)$$

ni hisoblang.

A) $\log_7 2$ B) -1 C) 0 D) 1

21. $y = \text{arctg}x$ funksiya grafigi berilgan bo'lib, uni parallel ko'chirish yordamida $y = \text{arctg}(x + a) + b$ funksiyaning grafigi hosil qilingan. Bunday parallel kochirishda koordinata boshi qanday nuqtaga ko'chadi?

A) $N(-a; b)$ B) $N(a; b)$ C) $N(b; a)$ D) $N(a; -b)$

22. O'zaro teng bo'lmagan x va y sonlari $x^2 + 26y = y^2 + 26x$ tenglikni qanoatlantirsa, $x + y$ ni toping.

A) 0 B) 26 C) 16 D) 24

23. $[4; 100]$ kesmada $2, 3, 5$ va 7 sonlariga bo'linganida qoldiq 1 ga teng bo'ladigan natural sonlar nechta?

A) 3 B) 0 C) 1 D) 2

24. $y > 0$ bo'lsin. To'rtburchakning uchlari to'g'ri burchakli dekart koordinatalar sistemasida quydagicha berilgan: $A(0; 0), B(0; y), C(10; y), D(12; 0)$. To'rtburchak dioganallarining o'rtalari orasidagi masofani toping.

3. A) 2 B) $\sqrt{2}$ C) 1 **4.** D) *y ga bog'liq*

25. $(x; y)$ sonlar jufti $\begin{cases} \frac{4x-3y}{6} + \frac{5y-2x}{3} = 0 \\ \frac{6x+7y}{2} - \frac{4x-3y}{4} = 2 \end{cases}$ sistemaning yechimi bo'lsa, $x^2 - y^2$ ni toping.

A) -1 B) 0 C) 2 D) 1

26. $y = \ln(\text{arctg}2x + \text{arcctg}2x)$ funksiyaning $x = \frac{1}{2}$ nuqtadagi hosilasining qiymatini toping.

A) 0 B) $\ln 2$ C) 1 D) $-\ln 2$

27. $\alpha = 7{,}5°$, $a = (\text{tg}\alpha)^{\text{tg}\alpha}$, $b = (\text{tg}\alpha)^{\text{ctg}\alpha}$, $c = (\text{ctg}\alpha)^{\text{tg}\alpha}$ bo'lsa, quyidagilardan qaysi biri o'rinli?

A) $b > a > c$ *B)* $b > c > a$ *C)* $b > a > c$
D) $c > b > a$

28. Ushbu $f(x) = \frac{x-6}{x-5}$ funksiyaning boshlang'ich funksiyasini toping.

A) $\ln(x-5)^2 + C$ B) $\frac{2x^2}{(x-5)^2} + C$
C) $x - \ln|x-5| + C$ D) $x + \ln|x-5| + C$

29. Ifodani soddalashtring:

$$\frac{1 - \text{tg}^2\frac{\alpha}{2}}{1 + \text{tg}^2\frac{\alpha}{2}} - \frac{1 + \sin 2\alpha}{\sin\alpha + \cos\alpha}, \alpha \in \left(0; \frac{\pi}{2}\right)$$

A) $\sin\alpha$ B) $2\text{tg}\alpha$ C) $\sin\alpha + 1$ D) $-\sin\alpha$

30. Uchburchakning uchlari to'g'ri burchakli dekart koordinatalar sistemasida quyidagicha berilgan: $A(0; 0)$, $B(-1; -2)$, $C(-2; 0)$. Uchburchak yuzini toping.

A) 3 B) $2\sqrt{2}$ C) 2 D) $2\sqrt{3}$

Maxsus test 1

1. Chizmalardan qaysi biri $(A \backslash B) \cup (B \backslash A)$ to'plamni ifodalaydi.

1.



2.







A) 1 B) 2 C) 3 D) 4

2. $713^{823+4n}, n \in \mathbb{N}$ sonni 5 ga bo'lgandagi qoldiqni toping.

A) 3 B) 2 C) 1 D) 4

3. Muntazam 42 burchakning eng katta va eng kichik diagonallari orasidagi burchakni toping.

A) $\frac{19\pi}{42}$ B) $\frac{18\pi}{41}$ C) $\frac{21\pi}{43}$ D) $\frac{\pi}{19}$

4. $f(x) = \sin 2x + 4x, f''(x) = ?$

A) $2\cos 2x + 4$ B) $4\sin 2x$

C) $-4\sin 2x$ D) $-4\sin 2x+4$

5. $\{a_n\}-$ arifmetik progressiyaning dastlabki 43 ta va 17 ta hadining yig'indisi mos ravishda $S_{43}=105$ va $S_{17}=13$ ga teng bo'lsa, $\frac{13}{60}\cdot S_{60}=$?

A) 46 B) 21 C) 17 D) 19

6. Tekislikda $y=1-x^2$ va $y=x^2-7$ chiziqlar bilan chegaralangan shaklning yuzini toping.

A) 21,(6) B) 21 C) 21,(2) D) 21,(3)

7. $\frac{a^3-2a^2+5a+26}{a^3-5a^2+17a-13}$ kasrni qisqartiring.

A) $\frac{a-2}{a+2}$ B) $\frac{a+2}{a-1}$ C) $\frac{a+2}{a-2}$ D) $\frac{1-a}{a+2}$

8. $a^2+b^2=1$ bo'lsa, $a^6+3a^2b^2+b^6$ ni hisoblang.

A) 1 B) 2 C) ab D) $a+b$

9. $\frac{2x-5}{x+3}>3$ tengsizlikni yeching.

A) $(-\infty;-14)\cup(-3;+\infty)$ C) $(-14;3)$

B) $(-14;-3)\cup(-3;+\infty)$ D) $(-14;-3)$

10. Aziz Lutfullaga qarab: "Hozir men senga kartadan fokus ko'rsataman", dedi va 36 talik kartadan Aziz istalgan ikkita kartani tanladi. So'ng Lutfulla 36 ta kartadan ikkita kartani oldi. Olgan kartalari Aziz tanlagan kartalar chiqish ehtimolini toping.

A) $\frac{1}{630}$ B) $\frac{2}{611}$ C) $\frac{1}{611}$ D) $\frac{1}{606}$

11. Aylanaga tashqi chizilgan muntazam oltiburchakning tomoni $2\sqrt{3}$ *sm* bo'lsa, shu aylanaga ichki chizilgan kvadratning yuzini *(sm²)*toping.

A) 16 B) 18 C) 12 D) 20

12. $2+\cfrac{1}{2x-\cfrac{x}{3-\cfrac{3x+6}{2}}}=x$ tenglama nechta yechimga ega.

A) 1 B) 2 C) 3 D) 0

13. $\sin|x|=x^2$ tenglama nechta butun yechimga ega?

A) 1 B) 2 C) 3 D) 0

14. $y=f(x)$ funksiyaning aniqlanish sohasi $[-2;6]$ oraliq bo'lsa, $y=-\frac{1}{2}\cdot f(3-2x)+5$ funksiyaning aniqlanish sohasini toping.

A) $\left[-\frac{3}{2};\frac{5}{2}\right]$ B) $[-9;7]$ C) $[0;4]$ D) $[-15;1]$

15. $y=\log_2(4-x)-\arcsin\frac{x-3}{4}$ funksiyaning aniqlanish sohasini toping.

A) $[-1;5]$ B) $(-1;4)$ C) $[-1;4]$ D) $[-1;4)$

16. $f(x)=\text{tg}^2x-\text{ctg}^2x$, $F(x)=$?

A) $tgx-\text{ctg}x$ B) $tgx+\text{ctg}x$

C) $x(tgx-\text{ctg}x)$ D) $x(tgx+\text{ctg}x)$

17. Shaklga ko'ra eng kichik aylananing radiusini toping. $R=5, r=3$.



A) 4/3 B) 1/3 C) 9/5 D) 1

18. $y=\left|1-\sqrt{1-x^2}\right|+\sqrt{1-x^2}+2x^3-3x$ funksiyaning eng katta qiymatini toping.

A) $\sqrt{2}+1$ B) 2 C) $1-\sqrt{2}$ D) 0

19. $\log_2(x-1)-\log_2(x+1)+\log_{\frac{x+1}{x-1}}2>0$

A) $x>3$ B) $x>4$ C) $x<3$ D) $x>6$

20. Quyidagilardan qaysi biri doim o'rinli?

1) $|a-b|<|a+b|$ 2) $|a+b|\le|a|+|b|$

3) $|a-b|\le\big||a|-|b|\big|$ 4) $|a|^2\ge a^2$

A) 1,2,3,4 B) 2,4 C) 2,3 D) 1,2,3

21. Cheksiz kamayuvchi geometrik progressiyaning 2 – hadi 5 – hadidan 8 marta katta. Agar bu geometrik progressiya hadlari yig'indisi 6 ga teng bo'lsa, uning 1 – hadini toping.

A) 3 B) 2 C) 4 D) 6

22. $\begin{cases}x^2-y=23\\ x^2y=50\end{cases}$ tenglamalar sistemasini yeching.

A) $(5;2),(-5;2)$ B) $(-2;5),(-5;-2)$
C) $(4;5),(-4;5)$ C) $(5;4),(-5;4)$

23. $y=|2x-3|-|2x+5|$ funksiyaning qiymatlar sohasini toping.

A) $(-\infty;-8]\cup[8;+\infty)$ B) $[-8;8]$
C) $[8;+\infty)$ D) $(-\infty;-8]$

24. $\sqrt{x^2-x-12}+\sqrt{5x-x^2-4}+\operatorname{tg}\frac{\pi}{2x-4}=1$

tenglamani yeching.

A)1 B) 3 C) 1,3 D) 4

25. $x^2-4x+3+y^2-6y+7=0$ aylanaga $P(7;8)$ nuqtadan urinma aylanaga T nuqtada urinsa, PT ni toping?

A)$\sqrt{45}$ B) $\sqrt{46}$ C) $\sqrt{47}$ D) $\sqrt{48}$

26. Tenglamani yeching:

$$|x^2-4x+3|+|3-2x-x^2|=|6-6x|$$

A) [-3;3] B) {-3;1;3}
C) {-4;3} D) {1;2;-3;3}

27. Hisoblang: $\sqrt[3]{0.5}+\sqrt[3]{4}-\sqrt[3]{13.5}$

A) $\sqrt[3]{2}$ B) 0 C) $\sqrt[3]{5}$ D) $-\sqrt[3]{5}$

28. Teploxod ikki pristan orasidagi masofani daryo oqimi bo'yicha 7 soat, oqimga qarshi 9 soatda o'tadi. Agar oqimning tezligi 2 $km/soat$ bo'lsa, pristanlar orasidagi masofa necha km?

A) 130 B) 126 C) 120 D) 128

29. Hisoblang:

$$\lim_{x\to1}\frac{\sqrt{2x+1}-\sqrt{3x}}{\sqrt{x+1}-\sqrt{2x}}$$

A) ∞ B) 0 C) $\sqrt{\frac{2}{3}}$ D) $\frac{1}{\sqrt{6}}$

30. Tetraedrning yon qirralari a,b,c ga teng bo'lib, uchidagi barcha tekis burchaklari 90^o ga teng. Tetraedrga kub shunday ichki chizilganki kubning bitta uchi tetraedrning uchida, unga qarama qarshi uchi esa tetraedrning asosida yotadi. Kubning qirrasini toping.

A) $\frac{abc}{ab+ac+bc}$ B) $\frac{ab+ac+bc}{a+b+c}$

C) $\frac{ab+ac+bc}{abc}$ D) $\frac{a+b+c}{ab+ac+bc}$

	0	1	2	3	4	5	6	7	8	9
0		D	B	A	C	A	D	B	A	D
1	A	B	B	A	A	D	B	C	A	B
2	B	A	A	B	D	C	A	B	B	C
3	A									

Maxsus test 2

1. $\cos\left(\frac{1}{\sqrt{x^2-4}}+\frac{\pi}{3}\right)>-\frac{\pi}{e}$ tengsizlikni yeching.

A) $\mathbb{R}$ B) $\emptyset$ C) $(-\infty;-2)\cup(2;+\infty)$ D) $(-\infty;-2]\cup[2;+\infty)$

2. $\mathcal{A}=\{x\in\mathbb{Z}|1<\log_2(x-3)<4\}$ to'plamning nechta ikki elementli qism – to'plami bor?

A) 78 B) 12 C) 24 B) 76

3. Quyidagi bo'yalgan sohalardan qaysi biri $A\cap B\cap C$ to'plamni ifodalaydi:

1.



2.



3.



4.



A) 2 B) 3 C) 4 D) 1

4. $y = f(x)$ funksiyaning eng kichik musbat davri $T_0 = \sqrt{2}$ ga teng. $y = \sin f(x)$ funksiyaning davrini toping.

A) $\sqrt{2}$ B) 2π C) $\sqrt{2}\pi$
D) *aniqlab bo'lmaydi*

5. 125 sonining barcha butun bo'luvchilari ko'paytmasini toping.

A) 125^4 B) 125^2 C) 25^4 D) -125^4

6. Quyidagi tasdiqlardan nechtasi to'g'ri?

1) Juft va toq funksiyalarning yig'indisi toq funksiya bo'ladi.

2) Har qanday funksiyani juft va toq funksiyalarning yig'indisi ko'rinishida yozish mumkin.

3) Juft va toq funksiyalarning aniqlanish sohasi koordinata boshiga nisbatan simmetrik bo'ladi.

4) Davriy funksiyalar juft funksiya bo'ladi.

A) 4 B) 2 C) 1 D) 3

7. Rasmda tasvirlangan ko'pyoqning D va B_1 uchlari orasidagi masofani toping. Bunda ko'pyoqning barcha ikkiyoqli burchakli to'g'ri burchakli.

A) 21 B) 20 C) 17 D) 19

8. Ifodaning qiymatini toping:

$$\sqrt{32}\cos^2\frac{\pi}{8} - \sqrt{8}$$

A) 3 B) 0 C) 2 D) 1

9. $y = \big||x-2|-3\big|$ funksiyaning $x = 1$ nuqtadagi hosilasini toping.

A) *mavjud emas*
B) 1 C) -1
D) 0



10. Ko'phadning o'zgaruvchili hadlari oldidagi koeffitsiyentlari yig'indisini toping.

$$(x+y+z)^6 - (2x-y+1)^3 + (2z-x+2)^3$$

A) 748 B) 741 C) 749 D) 740

11. Hisoblang:

$$1+\frac{1}{1+2}+\frac{1}{1+2+3}+\frac{1}{1+2+3+4}+\ldots+\frac{1}{1+2+3+\ldots+100}$$

A) $\frac{200}{101}$ B) $\frac{199}{101}$ C) $\frac{201}{101}$ D) 2

12. Hisoblang: $2\sqrt{13}\cos\left(\text{arctg}\frac{2}{3}\right)$

A) -6 B) 6 C) $\frac{2}{\sqrt{5}}$ D) $2\sqrt{5}$

13. $y = f(x)$ funksiyaning aniqlanish sohasi $\mathcal{D}(f) = [-3;6]$ oraliq. $y = f(x)$ funksiya grafigini Ox o'qdan 2 marta, Oy o'qdan 3 marta cho'zish orqali hosil qilingan funksiyaning aniqlanish sohasini toping.

A) $[-9;18]$ B) $[-1;2]$ C) $[-6;12]$ D) $\left[-\frac{3}{2};3\right]$

14. $(x^2-1)(x+3)(x+5) = 20$ tenglamani yeching.

A) $\sqrt{11}-2$ B) $2+\sqrt{11}$ C) $\pm\sqrt{11}-2$
D) $\pm\sqrt{11}+22$

15. Soat millari 13:47 ni ko'rsatmoqda. Soat va minut millari orasidagi burchakni toping.

A) 228,5° B) 228° C) 144° D) 144,5°

16. Quyidagi funksiyalardan qaysi birining grafigi koordinata boshiga nisbatan $y = \text{arcctg}(3x-8)$ funksiya grafigiga simmetrik bo'ladi?

A) $y = \text{ctg}(3x-8)$
B) $y = -\text{arcctg}(3x+8)$
C) $y = -\text{arcctg}(3x+8)$
D) $y = \text{arcctg}(3x+8) - \pi$

17. Ifodani soddalashtiring:

$$\frac{\frac{1}{a}-\frac{1}{b+c}}{\frac{1}{a}+\frac{1}{b+c}}\left(1+\frac{b^2+c^2-a^2}{2bc}\right):\frac{a-b-c}{abc}$$

A) $\frac{a(a+b+c)}{2}$ B) $\frac{a-b-c}{2}$

C) $a\cdot(a-b-c)$ D) $\frac{a(a-b-c)}{2}$

18. Quyida keltirilgan sonlardan qaysi biri $[4;5]$ oraliqqa tegishli?

A) $\left(\frac{2\sqrt{3}}{3}\right)^2$ B) $\frac{5\sqrt{6}}{\sqrt{75}}$ C) $\frac{5\sqrt{3}}{\sqrt{15}}$ D) $2\sqrt{5}$

19. Uchburchakning bir tomonida olingan nuqta orqali uchburchakning qolgan ikki tomoniga parallel chiziqlar o'tkazilgan bo'lib, bu chiziqlar uchburchakni uch qismga – bitta parallelogramm va ikkita uchburchakka ajratadi. Uchburchaklarning yuzasi 3 va 12 bo'lsa, parallelogrammning yuzasini toping.

A) 36 B) 12 C) 6 D) $6\sqrt{3}$

20. Diametri 4 ga teng bo'lgan aylanda AB diametr va CD vatar o'tkazilgan bo'lib, ular E nuqtada kesishadi. $\angle ABC = 60°, \angle BCE = 8°$ ekani ma'lum bo'lsa, CE ning uzunligini toping.

A) $\frac{\sqrt{3}}{\sin 68^\circ}$ B) $\frac{\sqrt{2}}{\sin 68^\circ}$ C) $\frac{\sqrt{3}}{\cos 68^\circ}$ D) $\frac{\sqrt{2}}{\cos 68^\circ}$

21. ABCD trapetsiyaning AD asosidagi o'tkir burchagidan o'tuvchi AC diagonal uni ikkita o'xshash uchburchaklarga ajratadi. AD asosning uzunligi a ga, BC asosning uzunligi b ga teng bo'lsa, AC diagonalning uzunligini hisoblang.

A) $\sqrt{ab}$ B) $\sqrt{\frac{a^2+b^2}{2}}$ C) $\frac{ab}{a+b}$ D) $\frac{a+b}{2}$

22. Muntazam 101 burchakning eng katta va eng kichik diagonallari orasidagi kichik burchakni toping.

A) $\frac{48\pi}{101}$ B) $\frac{97\pi}{202}$ C) $\frac{48\pi}{103}$ D) $\frac{97\pi}{101}$

23. Piramidaning asosi – uchburchak. Uning ikkita tomoni 3 va $\sqrt{3}$ ga teng hamda ular orasidagi burchak 30° dir. Har bir yon qirra esa $\sqrt{51}$ ga teng. Piramidaning hajmini toping.

A) 5 B) 3 C) 7 D) 6

24. Chizmada $y = f(x)$ funksiya grafigi tasvirlangan. Absissa o'qida o'nbitta $x_1, x_2, x_3, \dots, x_{11}$ nuqta berilgan. Bu nuqtalardan nechtasida funksiya hosilasi musbat bo'ladi?



A) 3 B) 4 C) 2 D) 5

25. Agar $\left(9x-\frac{1}{\sqrt{3x}}\right)^m$ binom yoyilmasi uchinchi hadining binomial koeffitsiyenti 105 ga teng bo'lsa, shu yoyilmaning o'nuchinchi hadi topilsin.

A) $455x^{-3}$ B) $-455x^{-3}$ C) $-455x^3$ D) $455x^3$

26. Quyidagi ma'lumotlarga ko'ra butun musbat son topilsin: agar uning o'ng tomoniga 5 raqami

yozilsa, izlangan sondan 3 ta ortiq songa qoldiqsiz bo'linadigan va bo'linmada bo'luvchidan 16 ta kam chiqadigan son hosil bo'ladi.

A) 22 B) 24 C) 27 D) 19

27. Tenglama nechta yechimga ega:

$$\frac{x-4}{\sqrt{x}+2} = x-8$$

A) 0 B) 1 C) 2 D) 3

28. Tenglamani yeching.

$$8\text{tg}^2\frac{x}{2} = 1 + \frac{1}{\cos x}$$

A) $\pm\arccos\frac{1}{3} + 2\pi n, n \in \mathbb{N}$

B) $\pm\arccos\frac{1}{3} + 2\pi n, n \in \mathbb{Z}$

C) $\pm\arccos\frac{1}{3} + \pi n, n \in \mathbb{N}$

D) $\pm\arccos\frac{1}{3} + \pi n, n \in \mathbb{Z}$

29. Limitni hisoblang:

$$\lim_{x\to+\infty}\left(\sqrt{(x+1)(x+2)} - x\right)$$

A) $\frac{3}{2}$ B) 0 C) ∞ D) 1

30. Xaltada 2 ta ko'k, 3 ta qizil va 4 ta yashil sharcha bor. Xaltadan olingan 2 ta sharchaning har xil rangda bo'lish ehtimolini toping.

A) 5/18 B) 1/3 C) 5/6 D) 13/18

	0	**1**	**2**	**3**	**4**	**5**	**6**	**7**	**8**	**9**
0		**C**	**A**	**B**	**A**	**A**	**C**	**A**	**C**	**B**
1	**B**	**A**	**B**	**A**	**C**	**A**	**D**	**D**	**D**	**B**
2	**A**	**A**	**A**	**B**	**A**	**A**	**A**	**B**	**B**	**A**
3	**D**	**A**	**A**	**A**	**B**	**B**	**A**			

Maxsus test 3

1. Agar $b^c = 49, b^a = 7$ va $c^a = 8$ bo'lsa, c^c ni toping.

A) 60 B) 58 C) 64 D) 27

2. Tenglamalar sistemasi nechta yechimga ega?

$$\begin{cases} |y| = |x^2 - 1| \\ y^2 = x - 2 \end{cases}$$

A) 1 B) 2 C) 0 D) 3

3. $|x-3|\cdot|x+1| = 5$ tenglamaning ildizlari yig'indisini toping.

A) 3 B) -3 C) -2 D) 2

4. $27^{2016^{2017}}$ sonining oxirgi raqamini toping.

A) 1 B) 7 C) 9 D) 3

5. $a = \sqrt[3]{10} + \sqrt[3]{12}$ va $b = 2\sqrt[3]{11}$ bo'lsa, quyidagilardan to'g'risini toping.

A) $a > b$ B) $b \geq a$

C) $a - b = 1$ D) $b^3 = a^3 + 1$

6. $\left[\left(\frac{1}{a} + \frac{1}{b+c}\right) : \left(\frac{1}{a} - \frac{1}{b+c}\right)\right] : \left(1 + \frac{b^2+c^2-a^2}{2bc}\right)$ ifodani soddalashtiring.

A) $\frac{1}{2bc}$ B) $\frac{a+b}{2bc}$ C) $\frac{2bc}{a+c-b}$ D) $\frac{2bc}{(b+c-a)^2}$

7. Qutida a ta oq va b ta qora shar bor. Qutidan olingan bir sharning oq rangda ekanligini bilgan holda boshqa bir shar olindi. Olingan sharning oq bo'lish ehtimoli topilsin.

A) $\frac{a}{a+b}$ B) $\frac{a-1}{a+b-1}$ C) $\frac{a-1}{a+b}$ D) $\frac{a}{a+b-1}$

8. Quyidagi tenglamani qanoatlantiruvchi nuqtalar orasidagi masofa topilsin.

$$\log_8(x^2+1)^3 - \log_2 xy + \log_{\sqrt{2}}\sqrt{y^2+4} = 3$$

A) 2 B) 5 C) $2\sqrt{5}$ D) $\sqrt{3}$

9. Aniq integralni hisoblang:

$$\int_1^5 [x]^2 dx$$

bunda $[x] - x$ sonining butun qismi.

A) $40\frac{1}{2}$ B) 35 C) $41\frac{1}{3}$ D) 30

10. $y = \log_2 f(x)$ funksiyaning aniqlanish sohasi $[-3;6]$ oraliqdan iborat. $y = \log_2 f(x)$ funksiya grafigini Ox o'qidan 3 marta cho'zish, so'ngra Oy o'qi bo'yicha 4 birlik yuqoriga siljitishdan hosil bo'lgan funksiyaning aniqlanish sohasini toping

A)$[-3;6]$ B)$[-1;2]$ C) $[-9;18]$ D) $[1;10]$

11. m ning qanday qiymatlarida

$$(m-1)x^2 + 2mx + 3m - 2$$

kvadrat uchhadni to'la kvadrat shaklida tasvirlash mumkin.

A) $2;\frac{1}{2}$ B) -2 C) $\frac{1}{2}$ D) 2

12. Quyidagi to'plamlardan qaysilari bo'sh to'plam?

1) $\{x \in \mathbb{N} | x^3 + 1 = 0\}$

2) $\{x \in \mathbb{R} | x^2 + x + 7 = -|x|\}$

3) $\{x \in \mathbb{N} | x^2 - 1 < 0\}$

4) $\left\{x \in \mathbb{N} | x^2 - \frac{9}{4} \le 0\right\}$

5) $\{x \in \mathbb{R} | x^2 + x + 1 < 0\}$

A) 1,3,4 B) 2,3,5 C) 1,2,3,5 D) faqat 2

13. a ning qanday musbat qiymatida

$$\begin{cases}(x+4)^2 + (y-4)^2 = 9 \\ (x+1)^2 + y^2 = a^2\end{cases}$$

tenglamalar sistemasi yagona yechimga ega?

A) 2 B) 3 C) 5 D) 1,2

14. $f(x) = \frac{x^2 - ax + 1}{x^2 + x + 1}$ funksiyaning qiymatlar to'plami $(-3; 3)$ interval bo'ladigan a ning barcha qiymatlarini toping.

A) $a \in (-2; 1)$ B) $a \in [-2; 1)$

C) $a \in (-5; 1)$ D) $a \in (-2; 2)$

15. $\{2016 < \sqrt{n} \le 2017, n \in \mathbb{N}\}$ to'plamning 4031 ta elementli qism to'plamlari sonini aniqlang.

A) $2016 \cdot 4031$ ta B) $2014 \cdot 4031$ ta

C) $2016 \cdot 4033$ ta D) $2016 \cdot 4031$ ta

16. Quyida $y = f(x)$ funksiyaning boshlang'ich funksiyasi $F(x)$ ning grafigi tasvirlangan. Shunga ko'ra $\int_{-2}^{5} f(x)dx$ hisoblansin.



A) 2 B) 3 C) 5 D) 1,2

17. Agar $f(x)$ –juft funksiya bo'lsa, va u

$$(x^2 - 4)f(2 - x) + \frac{f(x^2 - 2)}{x + 1} = 1$$

shartni qanoatlantirsa, $f(2)$ ni toping.

A) $\frac{2}{3}$ B) $-\frac{2}{3}$ C) 1 D) $-\frac{1}{3}$

18. Anvar bir ishni a kunda, Obid shu ishni b kunda, Odil esa shu ishni c kunda bajaradi. Agar ular birgalikda bu ishni 8 kunda bajarsa va $a > b > c$ bo'lsa, quyidagilardan qaysi biri a bo'lishi mumkin?

A) 25 B) 24 C) 23 D) 22

19. Agar $a = \sqrt[3]{4} + \sqrt[3]{2} + 1$ bo'lsa, $\frac{1}{a^3} + \frac{3}{a^2} + \frac{3}{a}$ ni toping.

A) 2 B) $\sqrt[3]{2} + 1$ C) 1 D) $1 - \sqrt[3]{2}$

20. m parametr bo'lsa, $y = x^2 - mx + 1$ parabolalar uchlarining geometrik o'rni quyidagilardan qaysi biri bilan ifodalanadi?

A) $x^2 + y^2 = 1$ B) $y = -x^2 + 1$

C) $x - y = -1$ D) $x + y = 1$

21. $2\arcsin\frac{x}{2} + 2\arccos x = \pi$ tenglamaning ildizi 5 dan qancha kam?

A) 0,5 B) 4,5 C) 4 D) 5

22. To'g'ri prizmaning asosi katetlari 20 *sm* va 21 *sm* bo'lgan to'g'ri burchakli uchburchakdan iborat. Gepotenuzaning o'rtasi orqali unga perpundikulyar ravishda tekislik o'tkazilgan. Agar prizmaning yon qirrasi 20 *sm* bo'lsa, kesimni yuzini toping.

A) 290 B) 420 C) 400 D) 220

23. ABC uchburchak aylanaga ichki chizilgan va AM mediananing davomi aylanani K nuqtada kesadi. Agar $AM = 18, MK = 8$ va $BK = 10$ bo'lsa, AC tamon uzunligini toping.

A) 15 B) 12 C) 10,5 D) 19,2

24. ABCD trapetsiyaning asoslari $AD = 9$ va $BC = 4$. Uning B, C va D uchlari aylanada bo'lib, AB tamon B nuqtada aylanaga urinma bo'lsa, uning BD dioganali uzunligi toping.

A) $\sqrt{65}$ B) 6 C) $2\sqrt{5}$ D) 3

25. ABC uchburchakning B uchi va AM mediananing o'rtasi orqali l to'g'ri chiziq o'tkazilgan, bu chiziq AC tamonni F nuqtada kesadi. Agar D nuqta AM ning o'rtasi bo'lsa, BD: DF ni toping.

A) 4:3 B) 3:1 C) 2:1 D) 5:4

26. Koordinata o'qlarini parallel ko'chirish natijasida $(2; 3)$ nuqta $(1; 0)$ nuqtaga o'tadi. Koordinata boshi qaysi nuqtaga o'tadi?

A) $(-1; -3)$ B) $(0; -3)$ C) $(1; 3)$ D) $(-2; 1)$

27. ABCD to'g'ri to'rtburchakda $AB = 2$, $\angle BDA = 30°$ bo'lsa, $\overline{DB}$ va $\overline{CD}$ vektorlarning ko'paytmasini toping.

A) 4 B) 4 C) -4 D) $2\sqrt{3}$

28. Uchburchak tamonlari $2x - 5y - 2 = 0$, $x + y - 8 = 0$ va $5x - 2y - 5 = 0$ tenglamalar bilan berilgan bo'lsa, uning medianalari kesishish nuqtasini toping.

A) $\left(\frac{5}{3}; 4\right)$ B) $\left(\frac{5}{3}; \frac{7}{3}\right)$ C) $\left(\frac{10}{3}; \frac{7}{3}\right)$ D) $\left(\frac{5}{3}; \frac{7}{2}\right)$

29. ABCD tetraedrning qirralari $\sqrt{6}$ ga teng bo'lsa, uning A uchidan BDC tekislikkacha bo'lgan masofa topilsin.

A) $\sqrt{2}$ B) 2 C) $\sqrt{3}$ D) $2\sqrt{2}$

30. Ikki yoqli burchakning yoqlarida yotgan A va B nuqtalardan burchakning qirrasigacha AA_1 va BB_1 perpendikulyarlar tushirilgan. Agar $AA_1 = 3$ $BB_1 = 4, A_1B_1 = 2\sqrt{3}$ va ikki yoqli burchak 60° ga teng bo'lsa, AB kesmaning uzunligini toping.

A) $2-\sqrt{3}$ B) $3\sqrt{2}$ C) 5 D) 1

	0	1	2	3	4	5	6	7	8	9
0		C	C	D	A	B	D	B	C	D
1	A	D	C	A	C	C	A	D	A	C
2	B	D	A	A	B	B	A	C	C	B
3	C	A	C	B	C	D	B			

Maxsus test 4

1. Hisoblang:

$$\frac{\frac{1}{2}}{1+\frac{1}{2}}+\frac{\frac{1}{3}}{\left(1+\frac{1}{2}\right)\left(1+\frac{1}{3}\right)}+\frac{\frac{1}{4}}{\left(1+\frac{1}{2}\right)\left(1+\frac{1}{3}\right)\left(1+\frac{1}{4}\right)}+\ldots+$$

$$+\frac{\frac{1}{8}}{\left(1+\frac{1}{2}\right)\left(1+\frac{1}{3}\right)\left(1+\frac{1}{4}\right)..\left(1+\frac{1}{8}\right)}$$

A) 0,(7) B) 0,(3) C) 0,(1) D) 1,(7)

2. 7^{77} ni 4 ga bo'lgandagi qoldiqni toping.

A) 1 B) 2 C) 3 D) 0

3. Agar $a=\frac{\sqrt{2}}{2}, b=\frac{1}{\sqrt[3]{2}}$ bo'lsa,

$$\left[a^{-\frac{3}{2}}b\left(ab^{-2}\right)^{-\frac{1}{2}}\left(a^{-1}\right)^{-\frac{2}{3}}\right]^3$$

ifodaning qiymatini toping.

A) $\sqrt{2}$ B) 1 C) $\frac{1}{\sqrt{2}}$ D) $\sqrt[3]{2}$

4. Quyida bo'yalgan sohalardan qaysi biri $(A\backslash B)\backslash C$ to'plamni ifodalaydi?



A) 3 B) 2 C) 1 D) 4

5. $y=\sqrt{5-\sqrt{4x^2-20x+25}}-\sqrt{|x|(2x-10)}$ funksiyaning aniqlanish sohasiga tegishli bo'lgan barcha butun sonlarning yig'indisini toping.

A) 5 B) 10 C) 0 D) 1

6. Funksiyaning davrini toping:

$$y=4\left\{\frac{1}{2}\cos^2\left(-\frac{1}{2}x+3\right)+4\right\}+1$$

A) 2 B) 4π C) $\frac{1}{\pi}$ D) 2π

7. $t^3+t+1=0$ bo'lsa, t^7 ni toping.

A) $2t^2-1$ B) $2t^2+1$ C) t^2+t D) t^2

8. Qadimgi noyob mollar magazini ikki dona buyumni 225 so'mga olib, 40% foydasiga sotdi. Agar mollarning biridan 25%, ikkinchisidan 50% foyda qilgan bo'lsa, magazin har qaysi molni necha so'mga olgan?

A) 95, 130 B) 90, 135 C) 80, 145 D) 85, 140

9. Rombning o'tmas burchagi uchidan uning tomonlariga perpendikulyar o'tkazilgan. Har bir

perpendikulyarning uzunligi 5 ga teng, ularning asoslari orasidagi masofa 8 ga teng. Rombning yuzi topilsin.

A) $26\frac{1}{24}$ B) $25\frac{1}{24}$ C) $24\frac{1}{26}$ D) $24\frac{1}{25}$

10. Tenglamaning ildizlari ko'paytmasini toping:

$$\log_x\left(9x^2\right)\cdot\log_3^2 x = 4$$

A) 1/3 B) 3 C) 1 D) 1/9

11. Kubning qo'shni yoqlarining ayqash diagonallari orasidagi masofani toping. Bunda kubning qirrasi $a\sqrt{3}$ ga teng.

A) $\frac{a}{3}$ B) $\frac{a}{2}$ C) a D) $\frac{a\sqrt{3}}{3}$



12. Hisoblang:

$$\sin\left[\frac{1}{2}\operatorname{arcctg}\left(-\frac{3}{4}\right)\right]$$

A) $\frac{2}{\sqrt{5}}$ B) $-\frac{2}{\sqrt{5}}$ C) 1 D) -1

13. Quyidagi funksiyalardan qaysi birining grafigi $y=-x$ to'g'ri chiziqqa nisbatan $y=f\left(\frac{1}{2}x\right)$ funksiyaning grafigiga simmetrik bo'ladi?

A) $y=-f\left(-\frac{x}{2}\right)$ B) $x=-f\left(-\frac{y}{2}\right)$ C) $x=f\left(\frac{y}{2}\right)$ D) $x=f\left(-\frac{y}{2}\right)$

14. Qirralari a teng bo'lgan ikkita kub bir – birining ichida joylashgan. Ulardan biri qarama – qarshi yon qirralaridan o'tuvchi tekislikka nisbatan 45° ga burildi. Hosil bo'lgan ko'pyoqning hajmini toping.

A) $a^3\left(4-2\sqrt{2}\right)$ B) $a^3\left(3-2\sqrt{2}\right)$ C) $a^3\left(4-\sqrt{2}\right)$ D) $a^3\left(3-\sqrt{2}\right)$

15. Rasmda tasvirlangan ko'pyoqning D_2 va B_1 uchlari orasidagi masofani toping. Bunda ko'pyoqning barcha ikki yoqli burchaklari to'g'ri burchakli.

A) 7 B) 8 C) 6 D) 9

16. $y=\sqrt[x]{\cos\sqrt{x}}$, $y'\left(4\pi^2\right)=?$

A) 0 B) $2\pi\sqrt{\pi}$ C) 1 D) -1

17. Rasmda $y=f(x)$ funksiyaning grafigi tasvirlangan. Keltirilgan $-5,-4,-2,-1,\ 1,\ 3$ nuqtalardan qaysi birida funksiyaning hosilasi eng katta bo'ladi?



A) -5 B) -2 C) 3 D) -1

18. $y=4\sqrt{2}\cos x+4x-\pi-1$ funksiyaning $\left[0;\frac{\pi}{2}\right]$ kesmadagi eng katta qiymatini toping.

A) -3 B) 3 C) π D) 1

19. ABCD to'rtburchakda $\angle CAB=\angle ABD=30°, \angle CBD=25°, \angle CAD=35°$ bo'lsa, $\angle ACD=$?.

A) 20° B) 25° C) 30° D) 35°

20. Tengsizlikni yeching:

$$\frac{19-x^2}{3+4x+x^2}\geq 1$$

A) $[-4;-3)\cup(-1;2]$ B) $(-1;2]$ C) $[-4;-3)$ D) $[-4;2]$

21. $\cos 7x-\sqrt{3}\sin 7x=-\sqrt{2}$ tenglama $\left(0{,}4\pi;\frac{6\pi}{7}\right)$ oraliqda nechta yechimga ega?

A) 3 B) 4 C) 2 D) 5

22. $(a+b)^n$ yoyilmaning barcha koeffitsiyentlari yig'indisi 4096 ga teng bo'lsa, uning eng katta koeffitsiyentini toping.

A) 920 B) 924 C) 912 D) 900

23. Hisoblang:

$$\lim_{x\to 4}\frac{x+\sqrt{x}-6}{x-5\sqrt{x}+6}$$

A) 5 B) ∞ C) -5 D) 0

24. $2-\dfrac{1}{2x-\dfrac{x}{3-\dfrac{3x+6}{2}}}=2x$ tenglama nechta yechimga ega?

A) 2 B) 1 C) 3 D) 0

25. $|y|=|2^x-1|, x=-1$ va $x=1$ chiziqlar bilan chegaralangan shaklning yuzini toping.

A) $\frac{1}{\ln 2}$ B) $\frac{1}{2\ln 2}$ C) $2\ln 2$ D) $\ln 2$

26. Arifmetik progressiyada $a_1+a_{11}+a_{21}=45$ va $a_{3n-4}+a_{8-3n}=18$ bo'lsa, S_{12} ni toping.

A) 156 B) 169 C) 144 D) *aniqlab bo'lmaydi*



27. Quyidagilardan qaysi biri doim musbat: $(0<a<1, b>1, c>1)$

A) $\log_a b\cdot\log_b c$ B) $\log_b c\cdot\log_c a$

C) $\log_a c\cdot\log_c\frac{1}{b}$ D) $\log_a c\cdot\log_b\frac{1}{c}\cdot\log_c a$

28. $y=a\log_3(kx+b)+d$ funksiya o'suvchi bo'lsa, quyidagilardan qaysi biri doim o'rinli?

A) $ak<0$ B) $ak>0$ C) $ab+k>0$ D) $k>0$

29. $P(x)$ ko'phadning koeffisiyentlari yig'indisi 12 ga teng bo'lsa, $t^2-P(1)t=-11$ tenglama nechta yechimga ega?

A) 1 B) *aniqlab bo'lmaydi* C) 2 D) 0

30. $mx^2+2(m-1)x+m-5=0, m\neq 0$ tenglamaning ildizlari x_1, x_2 bo'lsa, m ning qanday qiymatlarida $x_1<x_2<2$ bo'ladi?

A) $\left(-\frac{1}{3};0\right)\cup(1;+\infty)$ B) $\left(-\frac{1}{3};0\right)$ C) $(1;+\infty)$ D) $\left(-\frac{1}{3};+\infty\right)$

	0	1	2	3	4	5	6	7	8	9
0		**A**	**C**	**B**	**C**	**A**	**D**	**A**	**B**	**A**
1	**A**	**C**	**A**	**B**	**A**	**C**	**A**	**A**	**B**	**C**
2	**A**	**A**	**B**	**C**	**A**	**A**	**C**	**C**	**B**	**C**
3	**A**									

Maxsus test 5

1. Yon tomoni a ga teng bo'lgan ikkita teng yonli to'g'ri burchakli uchburchaklar ustma – ust qo'yildi. Shundan so'ng uchburchaklardan biri to'g'ri burchagining uchi atrofida 45° ga burildi. Hosil bo'lgan shaklning perimetrini toping.

A) $a(2+2\sqrt{2})$ B) $a(3+2\sqrt{2})$ C) $3a(1+\sqrt{2})$ D) $a(2+\sqrt{2})$

2. $\mathcal{A}=\{x\in\mathbb{N}:\log_2(x-2)<5\}$ to'plamning nechta uchta elementli qism to'plami mavjud?

A) 4494 B) 5456 C) 4495 D) 5495

3. Qirrasi a ga teng bo'lgan kub qo'shni yoqlarining ayqash diagonallari orasidagi masofani toping.

A) $\frac{a\sqrt{3}}{2}$ B) $\frac{a}{\sqrt{3}}$ C) $\frac{a\sqrt{2}}{2}$ D) $\frac{a\sqrt{3}}{4}$

4. Chizmada $(-6;6)$ oraliqda aniqlangan $y=f(x)$ funksiyaning grafigi tasvirlangan. Unga ko'ra $f'(x)=0$ tenglama $[-5{,}5;1{,}5]$ kesmada nechta yechimga egaligini aniqlang.

A) 7 B) 5 C) 6 D) 3

5. $2x^2-(a+1)x+a+3=0$ tenglamaning ildizlari orasidagi masofa 1 ga teng bo'lsa, a ni toping.

A) 9, −3 B) 9, −2 C) 3, 5 D) 2, 3

6. Tenglamalar sistemasi nechta yechimga ega?

$$\begin{cases} x+xy+y=11 \\ x^2y+xy^2=30 \end{cases}$$

A) 4 B) 2 C) 3 D) 1

7. Tengsizlikni yeching:

$$\frac{\log_2(x+5)}{2^{x+2}-4^x-3} \le \log_2(x+5)$$

A) $[-4;0] \cup (\log_2 3;+\infty)$
B) $[-4;1) \cup (\log_2 3;+\infty)$
C) $[-4;1] \cup (\log_2 3;+\infty)$
D) $[-4;0) \cup \{1\} \cup (\log_2 3;+\infty)$

8. Massalarining nisbati 3:5 bo'lgan Platiniy(*Pt*) va Mis(*Cu*) qotishmasiga massalarining nisbati 1:3 bo'lgan bo'lgan xuddi shunday qotishma qo'shilganda *Pt* va *Cu*larning nisbati 3:7 bo'lgan 20 kg qotishma hosil bo'ldi. Birinchi qotishmaning massasini toping.

A) 8 B) 12 C) 3 D) 5

9. Agar $\left(x-|x|^{\lg(-x)}\right)^5$ binom yoyilmasining uchinchi hadi (-10^6) ga teng bo'lsa, x ni toping.

A) $-10;-10^{-\frac{5}{2}}$ B) $-10;-10^{\frac{5}{2}}$ C) -10 D) $-10^{-\frac{5}{2}}$

10. Tengsizlikni yeching:

$$\operatorname{ctg}x + \operatorname{ctg}^3 x > \operatorname{tg}2x \ \left(0 < x < \frac{\pi}{4}\right).$$

A) $\left(0;\frac{1}{2}\arccos(2-\sqrt{3})\right)$
B) $\left(\frac{1}{2}\arccos(2-\sqrt{3});\frac{\pi}{4}\right)$
C) $\left(0;\frac{1}{2}\arccos(2-\sqrt{3})\right) \cup \left(\frac{1}{2}\arccos(2-\sqrt{3});\frac{\pi}{4}\right)$
D) $\left(\frac{1}{4}\arccos(2-\sqrt{3});\frac{\pi}{4}\right)$

11. a parametrning qanday qiymat(lar)ida

$$\ln(x-2a) - 3(x-2a)^2 + 2a = 0$$

tenglama yagona yechimga ega bo'ladi?

A) $\frac{\ln 6+1}{4}$ B) $\frac{\ln 6+2}{2}$ C) $1, \frac{\ln 6+1}{2}$ D) $\frac{\ln 6+1}{2}$

12. Tenglama $\left[-3\pi;-\frac{3\pi}{2}\right]$ oraliqda nechta yechimga ega?

$$\frac{13\sin^2 x - 5\sin x}{13\cos x + 12} = 0$$

A) 3 B) 4 C) 2 D) 0

13. Tengsizlikning butun yechimlari nechta?

$$\left(3^{\frac{x-2}{2}}-1\right)\sqrt{3^x - 10\sqrt{3^x}+9} \ge 0, x \le 8$$

A) *cheksiz ko'p* B) 5 B) 4 D) 6

14. Bo'yalgan sohalardan qaysi biri $(A \setminus B) \cup (B \cap C)$ to'plamni ifodalaydi?

1. 

2. 

3. 

4. 

A) 1 B) 3 C) 2 D) 4

15. $y = f(x)$ funksiya grafigini Ox o'qdan 4 marta cho'zish, Oy o'qdan 7 marta qisish orqali hosil qilingan funksiyaning aniqlanish sohasi $\left(-4;\frac{7}{8}\right)$ oraliq bo'lsa, $y = f(x)$ funksiyaning aniqlanish sohasini toping.

A) $\left(-28;\frac{49}{8}\right)$ B) $\left(-\frac{4}{7};\frac{1}{8}\right)$ C) $\left(-1;\frac{7}{32}\right)$ D) $\left(-16;\frac{7}{2}\right)$

16. Chizmada tasvirlangan ko'pyoq sirtining yuzini toping. Bunda barcha ikki yoqli burchaklar to'g'ri.

A) 92
B) 132
C) 86
D) 130



17. Hisoblang:

$$\frac{1\cdot 2+2\cdot 3+3\cdot 4+\ldots+15\cdot 16}{(1+2+3+\ldots+15)\cdot\frac{1}{6}}$$

A) 78 B) 68 C) 45 D) 40

18. Tomonlari 5, $\sqrt{7}$ va $2\sqrt{3}$ bo'lgan uchburchakka tashqi chizilgan aylana radiusini toping.

A) $\sqrt{3}$ B) $\sqrt{7}$ C) 3 D) 1

19. Qavariq ko'pyoqning uchlari soni yoqlari sonidan 8 ta ortiq, qirralari soni esa yoqlari sonidan 3 marta ko'p bo'lsa, ko'pyoqning uchlari sonini toping.

A) 6 B) 12 C) *aniqlab bo'lmaydi* D) 14

20. $y=f(x)$ funksiyaning davri 3 ga teng.

$$y=-\frac{1}{2f\left(\frac{1}{2}x-4\right)}+4$$

funksiyaning davrini toping.

A) 3/2 B) 4 C) 6 D) 12

21. $y=\left|\sin|x|+\frac{\sqrt{3}}{2}\right|$ funksiya $x\in\left(-2\pi;\frac{\pi}{3}\right)$ oraliqning nechta nuqtasida hosilaga ega emas?

A) 2 B) 3 C) 4 D) 1

22. Tengsizliklar sistemasini yeching:

$$\begin{cases}\dfrac{1}{x-1}+\dfrac{2}{x-2}-\dfrac{6}{x-3}\ge 0\\ \sqrt{x^2+34}\ge 6\end{cases}$$

A) $(-\infty;-\sqrt{2}]\cup\left[\sqrt{2};\frac{5}{3}\right]$ B) $(2;3)$
C) $(-\infty;-\sqrt{2}]\cup\left[\sqrt{2};\frac{5}{3}\right]\cup(2;3)$ D) $(-\infty;1)$

23. $x^2+3x-4\le 0$ tengsizlikning yechimlar to'plamida $y=x^2+2x-3$ funksiya qanday qiymatlar qabul qiladi?

A) $-4\le y\le 5$ B) $-4\le y\le 0$ C) $0\le y\le 5$
D) $y\in\mathcal{R}$

24. Qaysi nuqta $y=x^3+5x-2$ funksiyaga teskari funksiyaning grafigiga tegishli?

A) $(-2;1)$ B) $(0;-2)$ C) $(4;1)$ D) $(4;5)$

25. $y=k_1x+n_1$ va $y=k_2x+n_2$ to'g'ri chiziqlar orasidagi burchak β bo'lsa, ctg β ni toping.

A) $\left|\frac{k_2-k_1}{1+k_1k_2}\right|$ B) $\left|\frac{1+k_1k_2}{k_2-k_1}\right|$ C) $\frac{k_2-k_1}{1+k_1k_2}$ D) $\frac{1+k_1k_2}{k_2-k_1}$

26. Chizmada $y=f(x)$ funksiya hosilasining grafigi tasvirlangan. Unga ko'ra $y=f(x)$ funksiya grafigining qaysi nuqtasiga o'tkazilgan urinma $y=3x+7$ to'g'ri chiziq bilan ustma – ust tushadi?



A) $(-1;4)$ B) $(1;10)$ C) $(0;7)$ D) $(-2;1)$

27. Hisoblang:

$$\lim_{x\to\infty}\left(1+\frac{2}{x}\right)^x$$

A) ∞ B) 1 C) e D) e^2

28. Trapetsiyaning asoslari a va b ga teng. Uning asoslariga parallel va yuzasini teng ikkiga bo'luvchi chiziqning uzunligini toping.

A) $\sqrt{\frac{a^2+b^2}{2}}$ B) $\sqrt{ab}$ C) $\frac{2ab}{a+b}$ D) $\frac{a^2+b^2}{2}$

29. ABCD to'rtburchakda $\angle BCA = \angle ADB = 30°$, $\angle BAC = 45°$ bo'lsa, $\angle BDC$ =?

A) *aniqlab bo'lmaydi* B) 45,5° C) 45° D) 15°

30. 5; 9; 13; 17; … , arifmetik progressiyaning dastlabki nechta hadining yig'indisi 10877 ga teng bo'ladi?

A) 74 B) 73 C) 76 D) 72

	0	1	2	3	4	5	6	7	8	9
0		A	C	B	B	A	A	D	A	A
1	A	A	A	D	D	B	B	B	B	D
2	C	B	C	A	C	B	A	D	A	C
3	B									

Maxsus test 6

1. $y = f(x), \mathcal{D}(f) = \mathbb{R}$ toq funksiya bo'lsa, quyidagilardan nechtasi to'g'ri:

1.1. $f(0) = 0$;
1.2. $y = |f(x)|$ juft funksiya;
1.3. $x > y > z$ bo'lsa, $f(|x-y|) + f(|z-y|) + f(|x-z|) = 0$.

A) 1 B) 2 C) 3 D) 0

2. Quyida keltririlgan funksiyalardan qaysi birining grafigi $y = -x + 2$ to'g'ri chiziqqa nisbatan $y = \lg\left(\frac{1}{x} + 3\right)$ funksiyaning grafigiga simmetrik bo'ladi?

A) $y = 2 - \frac{1}{10^{2-x}-3}$ **B)** $y = 2 + \frac{1}{10^{2-x}-3}$

C) $y = 2 + \frac{1}{10^{2-x}+3}$ **D)** $y = 2 - \frac{1}{10^{2+x}-3}$



3. Quyida bo'yalgan soha qaysi to'plamni ifodalaydi?



A) $(A \cup B) \cup C$ **B)** $(A \backslash B) \backslash C$
C) $(A \backslash B) \cup (B \backslash C)$ **D)** $(A \cup B) \cap C$

